5. Электрон архив ва маълумотлар базасини интеллектуал бошқариш.

Бу ислохотларни амалга ошириш эса суд ишларини кўриш муддатларини қисқартириш, процессуал самарадорликни ошириш ва инсон омилини камайтиришга хизмат қилади.

## **3. Тадбиркорлар учун афзалликлар**

Сунъий ақлни иқтисодий судларга жорий этиш тадбиркорлар учун куйидаги имкониятларни яратади:

- суд ишларини кўриш тезлиги ошади;
- суд харажатлари камаяди;
- суд амалиёти бўйича таҳлилий маълумотлар асосида низони судгача ҳал қилиш имконияти кенгаяди;
- суд қарорларининг шаффофлиги ва прогноз қилиниши таъминланади;
- инвестицион муҳит яхшиланади.

Натижада иқтисодий муносабатларда ҳуқуқий барқарорлик мустаҳкамланади.

## **4. Муаммолар ва ҳуқуқий таваккалчиликлар**

Сунъий ақлни жорий этиш жараёнида куйидаги муаммолар юзага келиши мумкин:

1. Процессуал қонунчиликда сунъий ақлдан фойдаланиш тартибининг аниқ белгиланмаганлиги;
2. Шахсга доир ва тижорат сирларини ҳимоя қилиш билан боғлиқ хавфлар;
3. Алгоритмларнинг холислиги ва маълумотлар сифатининг етарли эмаслиги;
4. Судьялар ва суд аппарати ходимларининг рақамли кўникмалари етарли эмаслиги.

## **5. Таклиф ва тавсиялар**

Мазкур муаммоларни бартараф этиш мақсадида куйидаги таклифлар илгари суришни лозим деб ҳисоблайман:



- Иқтисодий процессуал кодексига сунъий ақлдан фойдаланиш асослари ва чегараларини белгилайдиган нормалар киритиш;
- Суд ахборот тизимлари учун ягона миллий стандарт ишлаб чиқиш;
- Киберхавфсизликни таъминлаш бўйича махсус техник регламент қабул қилиш;
- Судьялар учун рақамли технологиялар бўйича мунтазам малака ошириш курсларини жорий этиш;
- Сунъий ақлни қарор қабул қилиш эмас, балки ёрдамчи восита сифатида қўллаш тамойилини қонунчиликда мустаҳкамлаш.

### Хулоса

2030 йилгача бўлган тараққиёт стратегияси доирасида суд-ҳуқуқ тизимини рақамлаштириш иқтисодий судлар фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш имконини беради. Сунъий ақл технологияларини босқичма-босқич ва ҳуқуқий кафолатлар асосида жорий этиш тадбиркорлик муҳитини янада яхшилаш, инвестицион жозибадорликни ошириш ва одил судлов самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги 28.07.2021 йилдаги ЎРҚ-703-сонли Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
3. Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси, 01.04.2018 йил кучга кирган. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги 11.12.2003 йилдаги 560-II-сонли Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Электрон ҳукумат тўғрисида”ги ЎРҚ-395-сонли Қонуни, 09.12.2015 йилги Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги 02.07.2019 йилдаги ЎРҚ-547-сонли Қонуни, // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
7. “Янги Ўзбекистон стратегияси” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сонли Фармони.



## ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯСИДАН БЎЛГАН ҚАРЗДОРЛИК УНДИРИЛДИ

**Т.Жабборов**

Термиз туманлараро  
иқтисодий суди  
судьяси

**Аннотация:** Мақолада энергия таъминоти шартномаси доирасида юзага келадиган ҳуқуқий муносабатлар ва истеъмол қилинган электр энергияси учун тўловларни ўз вақтида амалга оширмасликнинг ҳуқуқий оқибатлари таҳлил қилинган. Муаллиф Фуқаролик кодексининг тегишли моддаларига таянган ҳолда, хўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги мажбуриятларнинг лозим даражада бажарилиши ва тўлов интизомига риоя этишнинг аҳамиятини Термиз туманлараро иқтисодий судида кўрилган муайян иш мисолида ёритиб берган. Шунингдек, асосий қарздорлик билан бир қаторда неустойка (пеня) ундиришнинг қонуний асослари кўрсатиб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Энергия таъминоти шартномаси, мажбурият, тўлов интизоми, қарздорлик, неустойка (пеня), иқтисодий суд, абонент, ҳудудий электр тармоқлари, лозим даражада бажариш, суд харажатлари.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси (бундан буён матнда ФК деб юритилади)нинг 236-моддасига кўра, мажбуриятлар мажбурият шартларига ва қонунчилик талабларига мувофиқ, бундай шартлар ва талаблар бўлмаганида эса — иш муомаласи одатларига ёки одатда қўйиладиган бошқа талабларга мувофиқ лозим даражада бажарилиши керак.

ФКнинг 468-моддасига кўра, энергия таъминоти шартномасига мувофиқ энергия билан таъминловчи ташкилот туташтирилган тармоқ орқали абонентга (истеъмолчига) энергия бериб туриш мажбуриятини олади, абонент эса қабул қилинган энергия ҳақини тўлаш, шунингдек шартномада назарда тутилган энергия истеъмол қилиш тартибига риоя этиш, тасарруфидаги энергетика шохобчаларидан фойдаланиш хавфсизлигини ҳамда ўзи фойдаланадиган энергия истеъмол қилувчи асбоб ва ускуналарнинг созлигини таъминлаш мажбуриятини олади. Энергия таъминоти шартномасида қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам назарда тутилиши мумкин.

Жавобгар “Тулпор” МЧЖ (номлар ўзгартирилган) билан даъвогар “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖнинг филиали ўртасида 03.01.2025 йилда 030476-сонли “Электр энергиясини якуний юридик ва юридик мақомга эга бўлмаган истеъмолчиларга сотиш шартномаси” (бундан буён матнда Шартнома деб юритилади) имзоланган.

Шартнома шартларига кўра, даъвогар (корхона) жавобгарга электр энергияси етказиб бериши, жавобгар (истеъмолчи) эса истеъмол қилинган энергия ҳақини ўз вақтида тўлаб бериш мажбуриятини зиммасига олган.



Шартномага асосан, даъвогар жавобгарга белгиланган миқдордаги электр энергияси етказиб бериб, шартномавий мажбуриятларини бажарган бўлсада, бироқ жавобгар томонидан шартномавий мажбуриятлар лозим даражада бажрилмасдан, етказиб берилган электр энергиясининг ҳақи шартномада белгиланган муддатда тўлаб берилмаган.

Натижада, даъвогар етказиб берилган электр энергияси учун тўланмаган қарздорлик суммасини ҳамда унга ҳисобланган пеняни ундириш тўғрисида судга даъво аризаси билан муурожаат қилган.

Суднинг ҳал қилув қарори билан даъвогарнинг даъво талаби асосли деб топилиб, даъво аризаси қисман қаноатлантирилди ҳамда жавобгар “Тулпор” масъулияти чекланган жамияти ҳисобидан даъвогар “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ фойдасига етказиб берилган электр энергиясидан бўлган 821 282 930,93 сўм қарздорлик ва 250 000 000 сўм устама (пеня) ҳамда олдиндан тўланган 41 200 сўм почта харажати ундириш белгиланди.

Шу ўринда шуни таъкидлаш керакки, шартнома муносабатлари тўлов интизомини талаб қилади. Тўлов интизомига риоя қилмаслик келгусида шартномавий муносабатларнинг бузилишига олиб келади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. **Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси.** (Биринчи ва иккинчи қисмлари). – Тошкент: «Адолат», 2023.
2. **Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодекси.** – Тошкент: «Юридик адабиётлар нашриёти», 2022.
3. **Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 майдаги ПФ-5059-сонли Фармони.** «Электр энергияси ва табиий газ етказиб бериш ҳамда истеъмол қилиш соҳасида тўлов интизомини янада мустаҳкамлаш, шунингдек, ижро иши юритиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида».
4. **Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 31 майдаги 319-сон қарори билан тасдиқланган** «Электр энергиясидан фойдаланиш қоидалари».
5. **Lex.uz** – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.



## ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ОЧИҚ ВА ШАФФОФ МЕХАНИЗМИ

Т.Усмонов

Термиз туманлараро  
иқтисодий судининг  
судьяси

**Аннотация:** Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасида давлат харидлари тизимини такомиллаштириш, унинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш ҳамда давлат харидларини амалга оширишнинг очиқ ва шаффоф механизмларини жорий этиш масалалари таҳлил қилинган. Шунингдек, “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуннинг мазмун-моҳияти, асосий принциплари, давлат харидлари субъектларининг ҳуқуқий мақоми, танлов ва тендер тартиб-таомиллари, назорат ва жамоатчилик иштирокининг аҳамияти ёритилган. Давлат харидларини рақобат асосида ташкил этиш орқали коррупциянинг олдини олиш, бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш ва иқтисодиёт барқарорлигини таъминлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** давлат харидлари, очиклик ва шаффофлик, тендер, танлов, электрон харид, рақобат муҳити, давлат буюртмачиси, харид комиссияси, жамоатчилик назорати, коррупцияга қарши кураш, бюджет маблағлари самарадорлиги.

Мамлакатимизда давлат ва корпоратив харидлари механизмни янада такомиллаштириш, тендер савдоларининг очиклиги ва шаффофлигини таъминлаш бўйича изчил ва комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, электрон савдолар жорий этилди, Республика товар-хом ашё биржасининг махсус ахборот портали ишга туширилди, товарлар (ишлар, хизматлар) хариди, жумладан инвестиция лойиҳалари доирасида кўп поғонали идоралараро тендер комиссиялари ташкил этилди.

Давлат харидлари тизимида ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш, тадбиркорлар учун электрон харид имкониятларини кенгайтириш борасида амалга оширилаётган ислохотлар юқори самара бермоқда. Бу муҳим механизмнинг мустаҳкам ҳуқуқий асослари яратилди: соҳага оид 30 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниб, амалиётга изчил татбиқ этилмоқда.

Айни пайтда, давлат хариди қонунчилиги тизимининг бугунги ҳолати ва унинг асосий йўналишлари, электрон давлат харидлари орқали шаффофлик ва самарадорликни таъминлаш, давлат бошқаруви тизими, иқтисодиёт ва ижтимоий соҳаларни ислоҳ қилиш шароитида ресурслардан оқилона фойдаланиш механизмларини ишлаб чиқиш ҳамда замонавий назорат шакл ва



услугларини жорий этиш амалдаги қонунчиликни янада такомиллаштиришни тақозо этар эди. Ана шу ҳаётий заруратдан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди.

Мазкур Қонун 12 та боб ва 85 та моддадан иборат бўлиб, унда қуйидаги масалалар қамраб олинган:

- давлат харидлари соҳасида давлат томонидан тартибга солиш;
- давлат харидлари жараёнига қўйилган умумий талаблар;
- электрон дўкон, аукцион, танлов ва тендер тартиб-таомиллари;
- ягона етказиб берувчи билан амалга ошириладиган харидлар;
- тадбиркорлик субъектлари учун енгилликлар;
- харид қилиш тартиб-таомиллари устидан назорат;
- шикоят қилиш механизми;
- давлат харидлари бўйича низо ва қарама-қаршиликларни ҳал этиш тартиби.

### Давлат харидларини тартибга солишнинг асосий мақсадлари

Давлат харидлари соҳасида давлат томонидан тартибга солишнинг асосий мақсадлари қуйидагиларда намоён бўлади:

- давлатнинг стратегик мақсад ва вазифаларига эришиш;
- давлат дастурлари ижросини таъминлаш;
- ижтимоий вазифаларни бажариш ва давлат хизматлари кўрсатиш;
- бюджет ташкилотлари ҳамда бюджет маблағлари олувчиларнинг эҳтиёжларини қондириш;
- давлат харидлари субъектлари учун қулай ва рақобатли муҳит яратиш;
- коррупция ва бошқа ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш.

Қонунда давлат харидларига оид асосий тушунчалар, ҳуқуқий асослар ва принциплар аниқ белгилаб берилган. Шунингдек, давлат буюртмачилари, харид жараёни иштирокчилари, давлат буюртмалари ижрочилари, харид комиссияси ҳамда махсус ахборот тизими операторининг ҳуқуқий мақоми мустаҳкамланган.

Муҳим жиҳатлардан яна бири — давлат харидлари соҳасида ваколатли орган сифатида тегишли давлат органига кенг ваколатлар берилиб, давлат харидларини режалаштириш, амалга ошириш, мониторинг қилиш, шартномалар тузиш ва уларнинг ижросини назорат қилишни қамраб олган тизимли ёндашув жорий этилгандир.

Шунингдек, Қонунда танлов ва тендер ўтказиш мезонлари аниқ белгиланган. Харид комиссияси фаолияти, эълон бериш тартиби, иштирокчилар томонидан таклиф киритиш, уларни кўриб чиқиш ва натижалар бўйича шартнома тузиш тартиби ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланган.

### Назорат ва жамоатчилик иштироки

Қонунда тадбиркорлик субъектлари учун белгиланган енгилликлар, давлат ва жамоатчилик назоратининг аҳамияти алоҳида қайд этилган. Харидлар самарадорлигини таҳлил қилиш, статистик маълумотларни таққослаш ва таҳлил асосида текширувлар ўтказиш давлат органлари фаолияти устидан назоратнинг асосий шаклларида бири ҳисобланади.



Жамоатчилик назорати эса очиқлик ва шаффофлик тамойилларига асосланади. Бу эса давлат харидлари жараёнида манфаатлар тўқнашуви ва коррупция ҳолатларининг олдини олишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

### Хулоса

Умуман олганда, мазкур Қонун рақобат асосида давлат харидларини амалга оширишнинг очиқ ва шаффоф механизмларини мустаҳкамлаб, тадбиркорлик субъектлари учун кенг имкониятлар яратмоқда. Бу эса коррупцияга қарши кураш самарадорлигини ошириш, давлат маблағларидан оқилона фойдаланиш ва мамлакат иқтисодиёти барқарор тараққиётини таъминлашга хизмат қилади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси
2. Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодекси.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуни.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 28 февралдаги “Давлат бюджетининг ғазна ижроси тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-594-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2016 йил 22 ноябрдаги 88-сон буйруғи билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2016 йил 22 декабрда 2850-рақами билан рўйхатдан ўтказилган “Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими бюджетларининг ғазна ижроси қоидалари”



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY ADOLATNI TA‘MINLASHNING  
STRATEGIK YO‘NALISHLARI VA DOLZARB VAZIFALARI

**Maxmudov Izzatillo Ne‘matilloevich**

Buxoro davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta‘minlashning strategik yo‘nalishlari va dolzarb vazifalari tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy islohotlar, kambag‘allikni qisqartirish, mahallabay ishlash tizimi, sog‘liqni saqlash transformatsiyasi hamda inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan siyosatning ijtimoiy davlat barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy adolat, ijtimoiy davlat, kambag‘allik, mahalla, farovonlik, islohotlar, inklyuzivlik, tenglik, bandlik, inson qadri, rivojlanish.

Zamonaviy davlatchilik taraqqiyoti sharoitida “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlarni o‘zida mujassam etgan paradigma sifatida maydonga chiqdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan strategik tashabbuslar markazida ijtimoiy adolat g‘oyasi turibdi. Hozirda mamlakatimizda ijtimoiy adolat tushunchasi tor ma‘nodagi moddiy yordam ko‘rsatish chegarasidan chiqib, inson qadrini yuksaltirishning yaxlit tizimiga aylanib bormoqda. Prezidentning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida ta’kidlanganidek, “ijtimoiy adolat – bu siyosiy barqarorlikning garovi va iqtisodiy o‘shishning ma’naviy asosidir” [1]. Ushbu yondashuv davlatning paternalistik boshqaruv usulidan voz kechib, fuqarolar bilan hamkorlikka asoslangan, xizmat ko‘rsatuvchi davlat modeliga o‘tayotganligini anglatadi.

S.S.Hamroyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta‘minlash jarayoni shunchaki iqtisodiy choralar bilan cheklanmay, balki ma’naviy-axloqiy va huquqiy jihatlarni ham qamrab oladi” [2]. “Inson qadri uchun” tamoyili davlat dasturlarining bosh mezoniga aylanishi, amaldorlarning xalq oldidagi hisobdorligini oshirish mexanizmlari bilan mustahkamlanmoqda.

“Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni ta‘minlashning strategik yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- ijtimoiy adolatni ta‘minlashning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslarini mustahkamlash;

- kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishning yangi modellarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

- ta’lim tizimidagi islohotlarni uzluksiz davom ettirish;

- sog‘liqni saqlash tizimini transformatsiya qilish va tibbiy sug‘urtani joriy etish;



- har bir insonning (yoshi, jinsi, nogironligi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar) jamiyat hayotida teng va faol ishtirok etishiga sharoit yaratish;

- sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish va adolatni qaror toptirish kafolatlarini yaratish zarur [3].

Ijtimoiy adolatni ta'minlash faqat iqtisodiy siyosat yoki ijtimoiy dasturlar doirasida emas, balki eng avvalo, **konstitutsiyaviy-huquqiy tizim orqali mustahkamlanishi zarur bo'lgan fundamental tamoyil** sifatida qaralmoqda [4]. Aynan Konstitutsiya jamiyatda huquqiy tenglik, inson qadr-qimmatini, qonun ustuvorligi va ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilab beruvchi normativ asos bo'lib, u ijtimoiy adolatning institutsional poydevorini shakllantiradi.

2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat tarixida ilk bor O'zbekistonni "huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, demokratik davlat" [5] deb e'lon qildi (1-modda). "Ijtimoiy davlat" maqomining konstitutsiyaviy darajada belgilanishi davlat zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Yangi Konstitutsiyada ijtimoiy soha va inson huquqlariga oid normalar uch barobarga ko'paytirilgani diqqatga sazovordir. Xususan:

- kambag'allikni qisqartirish majburiyati; Davlat kambag'allikni qisqartirish choralari ko'rishi konstitutsiyaviy norma sifatida belgilandi. Bu esa har qanday hukumat tarkibi uchun o'zgarimas vazifa hisoblanadi [6].

- uy-joy va tibbiy xizmat; Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash, shuningdek, kafolatlangan tibbiy xizmatdan bepul foydalanish huquqi Bosh qomusda mustahkamlandi.

- mehnat huquqlari va adolatli haq to'lash; Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush kechirishi uchun yetarli bo'lishi kerakligi belgilab qo'yildi. Bu norma "ishlaydigan kambag'allar" toifasini yo'q qilishga qaratilgan strategik qadamdir [7].

Konstitutsiyaga kiritilgan ushbu o'zgarishlar ijtimoiy yordamni "hukumatning yordami" maqomidan "fuqaroning konstitutsiyaviy huquqi" darajasiga ko'tardi. Bu ijtimoiy adolatni ta'minlashda barqarorlik va izchillikni kafolatlaydi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy adolatni ta'minlashning eng o'ziga xos strategik yo'nalishlardan biri bu **kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlardir**. Bu tizim pandemiyaning og'ir sharoitida yuzaga kelgan zarurat natijasida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik ijtimoiy siyosatning institutsional asosiga aylandi. Ushbu tizimning o'ziga xosligi shundaki, u muammolarni umumiy statistik raqamlar orqali emas, balki har bir xonadon kesimida individual o'rganish imkonini beradi. 2017-2024 yillar davomida ushbu islohotlar orqali 3,5 milliondan ziyod fuqaroga amaliy yordam ko'rsatilgani tizimning ko'lami naqadar keng ekanligini anglatadi [8].

Biroq, bu tizimni raqamlashtirish va inson omilini kamaytirish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilishi zarur. 2024-2025 yillarda barcha daftarlarda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" bilan integratsiya qilinib, yordam tayinlash jarayoni shaffoflashtirildi. Endilikda fuqarolarni daftarlarga kiritish va chiqarish mahalliy



kengashlar qarori bilan emas, balki elektron platformadagi obyektiv mezonlar asosida amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarish korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish va ijtimoiy adolatni tiklashda muhim qadamdir.

Markazlashgan boshqaruvdan voz kechish va ijtimoiy muammolarni hal etish vakolatini quyi bo'g'inga berish "mahallabay" ishlash tizimining asosini tashkil etadi. Har bir mahallada hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori va ijtimoiy xodimdan iborat "Mahalla yettiligi" shakllantirildi. Ushbu tizimning ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi roli quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. *Resurslarga teng egalik*; Hokim yordamchilari orqali imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va yer maydonlari ajratilishi byurokratik to'siqlarni chetlab o'tib, to'g'ridan-to'g'ri aholiga yetib bormoqda.

2. *Monitoring*; Haqiqiy muhtojlarni aniqlashda mahalla faollarining ishtiroki ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlaydi.

3. *Professional ijtimoiy xizmat*; 2025-yildan boshlab "Ijtimoiy himoya milliy agentligi" tomonidan mahallalarda professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda. Bunda shunchaki moddiy yordam berish emas, balki og'ir vaziyatdagi oilani inqirozdan olib chiqish bo'yicha individual ijtimoiy reja tuziladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi strategik vositalardan foydalanilmoqda:

- *Mikromoliya va tadbirkorlik*; Kambag'al oilalarga kichik biznesini boshlash uchun 100 million so'mgacha garovsiz kreditlar ajratish, mikromoliya tashkilotlari imkoniyatlarini kengaytirish.

- *Infratuzilmani rivojlantirish*; Qishloq joylarni rivojlantirish va obod qishloq" dasturlari orqali eng chekka hududlarda ham hayot sifatini oshirish, bu esa mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

- *Ko'nikmalarni rivojlantirish*; Faqat nafaqa berish boqimandalikni keltirib chiqarishi sababli, asosiy e'tibor kasb-hunarga o'qitishga qaratilmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda kambag'allik darajasi sezilarli pasaygan (masalan, 35% dan pastga), biroq barqaror natijaga erishish uchun iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini ta'minlash talab etiladi.

Kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlar jarayonida ijtimoiy adolat abstrakt axloqiy tamoyil emas, balki insonning real hayot sifati orqali o'lchanadigan ijtimoiy hodisaga aylanadi. Mazkur islohotlar daromadlar tengsizligini bartaraf qilish, ijtimoiy himoyaning manzilliligini kuchaytirish, bandlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish hamda ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga tenghuquqli egalik orqali ijtimoiy tizimning strukturaviy nomutanosibliklarini bartaraf etishga xizmat qiladi [9]. Shu asosda, kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari faqat iqtisodiy choralar majmui bilan cheklanmay, balki inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy mobillikni kengaytirish va fuqarolarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga imkon beruvchi institutsional sharoitlarni yaratish bilan uyg'unlashadi. Natijada, farovonlikni oshirishga qaratilgan islohotlar jamiyatda adolat mezonlarini mustahkamlab, ijtimoiy ishonch va birdamlikni



kuchaytiradi hamda ijtimoiy davlatning barqarorligi va legitimligini ta'minlovchi muhim omilga aylanadi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim institutsional mexanizmi sifatida sog'liqni saqlash tizimini transformatsiya qilish va tibbiy sug'urtani joriy etish jamiyatda hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirib, tibbiy yordamdan teng huquqli foydalanish barqarorlikni ta'minlaydi. Tibbiy sug'urtaning joriy etilishi ijtimoiy zaif qatlamlarni himoyalash va profilaktik tibbiyotga ustuvorlik berish funksiyasini bajarib, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshiradi. Natijada, aholining hayot sifati va farovonligi yuksaladi hamda sog'liqni saqlashni faqat xizmat ko'rsatish sohasi emas, balki ijtimoiy adolatni mustahkamlovchi tayanch institut sifatida qaror topadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: “davlat – jamiyat, дата последнего обращения: января 18, 2026, <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/jangi-zbekiston-taraiet-strategijasi-davlat-zhamijat-inson-tamojilidan-inson-zhamijat-davlat-tamojiliga-tilmoda>
2. ADOLATLI, IJTIMOIIY SIYOSAT YURITISH, INSON OMILINI ..., дата последнего обращения: января 18, 2026, <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/download/52699/33459/58255>
3. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHGA ..., дата последнего обращения: января 18, 2026, <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/download/15331/10665/12656>
4. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi – ijtimoiy davlat kafolati, дата последнего обращения: января 18, 2026, [https://constitution.uz/oz/pages/ijtimoiy\\_davlat\\_kafolati](https://constitution.uz/oz/pages/ijtimoiy_davlat_kafolati)
5. YANGI TAHIRIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ..., дата последнего обращения: января 18, 2026, <http://journalss.org/index.php/mod/article/view/15>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston-2030 ..., дата последнего обращения: января 18, 2026, [https://api-portal.gov.uz/uploads/41/2025/09/20/9b6ef4fd-2760-fbc6-d81a-b3629f3f82e3\\_media\\_.pdf](https://api-portal.gov.uz/uploads/41/2025/09/20/9b6ef4fd-2760-fbc6-d81a-b3629f3f82e3_media_.pdf)
7. O'zbekiston Prezidenti global ijtimoiy adolatni mustahkamlash bo ..., дата последнего обращения: января 18, 2026, <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/president-of-uzbekistan-presents-initiatives-on-strengthening-global-social-equity>
8. Gender tenglik: ayollarning huquq-manfaatlari yo'lida qanday ishlar ..., дата последнего обращения: января 18, 2026, <http://pravacheloveka.uz/oz/news/gender-tenglik-ayollarning-huquq-manfaatlari-yolida-qanday-ishlar-amalga-oshirilmoqda>
9. YO'L XARITASI»ning 2025-yil birinchi yarmidagi ijrosi holati yuzasidan, дата последнего обращения: января 18, 2026,



<http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/inson-uulari-bjicha-zbekiston-respublikasi-millij-strategijasini-amalga-oshirish-bjicha-jl-haritasining-2025-jil-birinchi-jarmidagi-izhrosi-olati-juzasidan>



## TINCHLIK VA HAMKORLIK G‘OYALARI TARIXI VA ULARNING JAMIYAT BARQARORLIGIDAGI AHAMIYATI

**Rajabov Behruz Baxshillayevich**

Buxoro davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tinchlik va hamkorlik insoniyat taraqqiyotining muhim omillari sifatida tahlil qilinib, unda tarixiy-falsafiy manbalar va buyuk mutafakkirlarning qarashlari asosida tinchlik, adolat, hamjihatlik va bag‘rikenglik jamiyatning uyg‘un rivojlanishi va barqarorligini ta‘minlovchi asosiy tamoyillar ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Zardushtiylik, Konfutsiy, Islom, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Abu Nasr Forobiy qarashlarida tinchlik nafaqat siyosiy zarurat, balki insonparvarlik va ma‘naviy qadriyat sifatida shakllantirilishi lozimligi qayd etilgan. Bundan tashqari, xalqlar o‘rtasida hurmat, do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirish orqali jamiyat barqarorligini ta‘minlash tinchlik va hamkorlikning umuminsoniy qadriyat sifatidagi ahamiyatini yanada mustahkamlashi ta‘kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** tinchlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, jamiyat, madaniyat, qadriyat, taraqqiyot.

Tinchlik va hamkorlik insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash tarixiy-falsafiy asoslarni tahlil etishni talab qiladi. Zero, tinchlik va hamkorlik g‘oyalarining shakllanish jarayonini o‘rganmasdan turib, ularning ijtimoiy-ma‘naviy rivojlanishning muhim qonuniyati sifatidagi ahamiyatini to‘liq anglash mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, tinchlik va hamkorlikni faqat siyosiy yoki ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki falsafiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Borliqdagi barcha narsa va hodisalar o‘zaro aloqador hamda tizimli tarzda mavjud bo‘lganligi sababli, tinchlik va hamkorlik ushbu tizim elementlarining o‘zaro ta‘siri, uyg‘unligi va barqarorligini ifodalovchi tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Ular muayyan tizimning bir butun holda mavjud bo‘lishini ta‘minlovchi dialektik jarayonning ajralmas atributi sifatida namoyon bo‘lib, jamiyat rivojining ichki harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylanadi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, diniy, ilmiy va falsafiy qarashlarning deyarli barchasida tinchlik va hamkorlik umuminsoniy qadriyat sifatida e‘tirof etilgan. Shu bois ushbu tushunchalarni tarixiy-falsafiy kategoriya sifatida tadqiq etish zamonaviy jamiyat taraqqiyotini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganidek, “Tarix shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha sivilizatsiyalar, madaniyat va dinlar inson huquqlari to‘g‘risidagi tayanch tushunchalarning shakllanishiga asos bo‘lgan insonparvarlik g‘oyalari ta‘sirida vujudga kelgan. Masalan, bundan 2700 yil muqaddam Osiyo hududida yaratilgan eng ko‘hna yozma yodgorlik – “Avesto”



kitobida inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlarni o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillari negizida barpo etish g‘oyalari muhim o‘rin tutadi, zo‘ravonlik va adolatsizlik rad etiladi” [1].

Tinchlik va hamkorlik insoniyat tafakkuri tarixida eng qadimiy va barqaror g‘oyalardan biri hisoblanadi. Turli sivilizatsiyalar, diniy ta‘limotlar va buyuk mutafakkirlar qarashlarida insonparvarlik, bag‘rikenglik va o‘zaro hamjihatlik jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin etilgan. Tarixiy-falsafiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tinchlik g‘oyasi nafaqat siyosiy zarurat, balki ma‘naviy qadriyat sifatida shakllangan.

Qadimgi Sharqda eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda vujudga kelgan zardushtiylik ta‘limotida olam ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat o‘rtasidagi abadiy kurash maydoni sifatida tasvirlanadi. Bu ta‘limotda inson ezgulik tomonini tanlash orqali olamdagi uyg‘unlikni mustahkamlovchi mavjudot sifatida qaraladi. Demak, tinchlik insonning axloqiy tanlovi bilan bog‘lanadi; yaxshilik, adolat va rostgo‘ylik jamiyatda hamkorlik va barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy insonparvar qadriyatlar sifatida talqin etiladi. “Avesto”da dunyoni tinch va obodligi, yaxshilik va ezguligi xususida quyidagilar keltirilgan: “Ey, Ahura Mazda! Tug‘ilgandan pok bo‘lmoq tiriklikda buyuk ishdir. Dunyoni obod etmoq uni yaxshilik bilan asramoq va yorug‘lik sari eltmoq kerak!” [2]. Shu bois, zardushtiylikda yer yuzi va koinotdagi turli o‘zgarishlar yaxshilikni va yomonlikni ifodalovchi kuchlar bilan bog‘liq deb qaraladi.

Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy qarashlarida tinchlik masalasi davlat boshqaruvi bilan chambarchas bog‘langan. Uning fikricha, urush va nizolarning asosiy sababi adolatsiz boshqaruvdir. Adolatli, dono va axloqan yetuk hukmdor jamiyatda tartib, hamjihatlik va tinchlikni ta‘minlaydi. Konfutsiy insonlar o‘rtasidagi hurmat, mas‘uliyat va ijtimoiy burchni tinch jamiyat qurilishining muhim omili deb hisoblagan. Bu qarash insonparvar boshqaruv konsepsiyasining dastlabki falsafiy shakllaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Muqaddas Islom dini esa tinchlik, hamjihatlik va hamkorlikni o‘zining asosiy ma‘naviy tamoyillaridan biri sifatida e‘tirof etadi. Islom ta‘limotida insonlar o‘rtasida adolat, mehr-shafqat, bag‘rikenglik va o‘zaro yordam tamoyillari ilgari suriladi. Bu fikrning dalili sifatida Baqara surasida quyidagi berilgan: “Ey, mo‘minlar yoppasiga itoatga (tinchlikka) kirishingiz va shaytonning izidan ergashmangiz” (Baqara surasi, 2,208) [3]. “as-Salom” so‘zning o‘zi tinchlik ma‘nosini anglatishi ham ushbu dinning insonparvarlik mohiyatini namoyon etadi. Jamiyatda nizolarni murosas, maslahat va adolat orqali hal etish g‘oyasi tinchlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sharq uyg‘onish davrining buyuk allomasi Ibn Sino qarashlarida tinchlik inson salomatligi va jamiyat barqarorligi bilan bog‘liq holda talqin etiladi. U insonning jismoniy va ruhiy kamoloti jamiyatdagi muvozanat va osoyishtalik sharoitida yuzaga kelishini ta‘kidlaydi. Ibn Sino uchun insonparvarlik ilm-fan, axloq va ma‘rifat orqali jamiyatni uyg‘un rivojlantirish demakdir. U o‘zining moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini boshqalar bilan hamkorlikda va hamjihatlikda ro‘yobga chiqara oladi. Hayotni davom etirish maqsadida odamlar mehnat taqsimotiga



asoslangan jamoalarga birlashishga majbur bo'ladilar. Hamkorlikka erishish esa qonun va adolatning qaror topishini taqozo qiladi. Qonun va adolat tantanasini ta'minlash uchun hukmdorlar zarur bo'lib, ular odamlarga ta'sirchan nutq bilan murojaat eta bilishi va ularni qonunga rioya etishlarini talab qila olishlari zarurligini ta'kidlaydi. Ular bu borada kishilarni va ularning qarashlarini boshqarishsiz qoldirmasliklari lozim, aks holda, ular o'rtasida o'zaro nizo va kelishmovchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Natijada, har kim o'ziga foydali narsani adolatli, zararli narsani esa adolatsizlikning namunasi deb hisoblashi mumkin [4].

Abu Rayhon Beruniy esa turli xalqlar madaniyatini chuqur o'rganib, insoniyatning umumiy qadriyatlar asosida yashashi g'oyasini ilgari surgan. Uning ilmiy faoliyatida madaniyatlararo muloqot, o'zaro hurmat va bag'rikenglik alohida o'rin egallaydi. Beruniy boshqa xalqlarga nisbatan xolis yondashuvni tinchlik va hamkorlikning muhim sharti sifatida ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniy o'z ilmiy va falsafiy qarashlarida tinchlikparvarlik, insonparvarlik hamda bag'rikenglik g'oyalarini ilgari surgan buyuk mutafakkir sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat atoqli olim, balki irqiy va diniy xurofotlarga qarshi qat'iy kurashgan gumanist edi. Beruniy Mahmud G'aznaviy hukmronligi davrida yashagan bo'lsa-da, Hindistonga qilgan yurishlar davomida yuz bergan diniy fanatizm va shafqatsizlikni keskin tanqid qilgan. Uning ta'kidlashicha, bunday zo'ravonliklar xalqlarning madaniy taraqqiyotiga katta zarar yetkazgan. Shu bois mutafakkir turli millat va din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, hamjihatlik va do'stlikni ta'minlash insoniyat taraqqiyotining muhim sharti deb hisoblagan [5]. Beruniyning qarashlarida tinchlik va hamkorlik umuminsoniy qadriyat sifatida talqin etiladi.

Abu Nasr Forobiy o'rta asrlar falsafasining eng mashhur vakillaridan biri sifatida Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasida noyob muloqot yo'lga qo'ygan va insonlarga uyg'un, ziddiyatlardan holi dunyoqarashni targ'ib qilgan buyuk olim va faylasufdir. Forobiy jamiyatda ezgulik, adolat, hamjihatlik, do'stlik va hamkorlikni insoniyatning baxt-saodat va kamolotga erishish asosiy vositasi deb hisoblagan. U pasifistik qarashlariga ko'ra, har qanday urush koinotning yaxlitligi nuqtai nazaridan mantiqsizdir. Urushlar umumkoinot tartibini buzadi va uyg'unlikni yo'qotadi, bu esa insoniyat va jamiyat uchun halokatli oqibatlariga olib keladi. Shu sababli, al-Forobiy dunyo va koinotning urushsiz, barqaror uyg'unlikda mavjud bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan [6]. Unga ko'ra, inson jahon aqlining bir qismi sifatida, koinotdagi o'z o'rnini anglagan holda, zo'ravonlik va mojaro yo'llariga bormasligi lozim. Forobiy falsafasida tinchlik va uyg'unlik insoniy hayotning muhim tamoyili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tinchlik va hamkorlik insoniyat taraqqiyotining ajralmas va barqaror qadriyatlari sifatida shakllangan. Tarixiy-falsafiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zardushtiylik, Konfutsiy, Islom, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Abu Nasr Forobiy qarashlarida tinchlik, adolat, hamjihatlik va bag'rikenglik insonparvarlik tamoyillari sifatida jamiyatning uyg'un rivojlanishi va barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lgan. Bu mutafakkirlar urush va zo'ravonlikni tanqid qilib, xalqlar o'rtasida hurmat, do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishni insoniyat taraqqiyoti sharti deb hisoblagan. Shu



tariqa, tinchlik va hamkorlik nafaqat siyosiy zarurat, balki ma'naviy qadriyat va jamiyat hamda koinot uyg'unligining muhim tamoyili ekanligi tasdiqlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi ishtirokchilariga // "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil 23- noyabr, №242 (7200).
2. Avesto. Mas'ul muharrir: Jo'rayev N., Xalilov N., Bo'ronov M. – Toshkent: "Ta'lim nashriyoti", 2021. –B.225.
3. Курьони карим маъноларининг таржима ва тафсири //Таржимон: Абдулазиз Мансур. –Тошкент: "О'qituvchi" нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020. –Б.211.
4. Ibn Sino. Kitob an-najot. –Qohira, 1983. –B.303.
5. Беруни Абу Рейхан. Избранные произведения. Т.П. Индия. – Ташкент, 1963. –с.63.
6. Al-Farabi Created Universal Intellectual Standards // <https://astanatimes.com/2020/10/al-farabi-created-universal-intellectual-standards/>



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

ИСТОРИОГРАФИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОТЧЁТОВ РЕВИЗИИ  
К.К. ПАЛЕНА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ В 1908-1909 ГГ.

*Нуриiddинова Нодира Сирожовна*  
научный соискатель БухДУ

**Аннотация.** Статья раскрывает причины и обстоятельства проведения комплексной ревизии в Туркестане в 1908-1909 гг. под руководством К.К. Палена, которые обусловили значение собранных этой комиссией материалов как одного из самых глубоких и объективных источников, дающих современному исследователю информацию как об отдельных событиях и фактах, характеризующих эпоху начала XX века, так и целостную картину колониальной политики России – динамику изменений в хозяйственной и культурной жизни Туркестанского края, развития здесь товарно-денежных отношений и освоения недр со дня включения его в состав империи.

**Ключевые слова:** К.К. Пален, Туркестанский край, Российская империя, Николай II, сенаторская ревизия 1908-1909 гг., реформа системы управления.

**Введение:** Целью данной статьи является желание автора привлечь внимание исследователей к источнику, который не обделён вниманием специалистов [4, 5], однако познавательное и методологическое значение которого всё более возрастает по мере вовлечения нашего центральноазиатского региона в процессы глобализации всех сторон жизни, с одной стороны; и вхождения в оформляющийся на наших глазах многополярный мир (в геополитическом значении слова), с другой стороны. А именно – к 20-томному собранию отчётов сенаторской ревизии 1908-1909 гг. в Туркестанском крае под руководством графа К.К. Палена.

Эпоха конца XIX – начала XX вв. характеризуется для России рядом событий, потрясших империю и общество в самих его устоях и указавших на шаткое положение России в мире, который именно в эти годы обретает черты многополярности. Это, прежде всего, поражение России в войне с Японией в 1904 г., что знаменовало неожиданное, как бы внезапное появление на Дальнем Востоке новой геополитической силы – Японской империи с её далеко идущими амбициями, и с ними отныне следовало считаться традиционным акторам международной политики. И это, конечно, революция 1905 г. в России как следствие её военного поражения, что обнажило в самом неприглядном виде накопившиеся внутренние проблемы и противоречия российского государства, от которых правящие круги отмахивались в предшествующие десятилетия и которые к началу XX века обратились в угрожающие и взрывоопасные факторы общественной жизни. Это, наконец, Столыпинская реформа, запущенная в 1906 г. и преследующая цель



преодолеть эти проблемы, сбалансировать положение в сельском хозяйстве и урегулировать процессы миграции малоимущего крестьянства из густонаселённых центральных губерний в малонаселённые восточные, в том числе в огромный Туркестанский край.

### **Основная часть**

Необходимость кардинальных реформ в органах управления и хозяйствования остро ощущалась и в Туркестанском генерал-губернаторстве, функционировавшем на основании устаревшего «Положения об управлении Туркестанским краем» 1886 г. Требовалось принять новое положение, которое в вопросах управления экономикой края предоставило бы больше свободы и манёвра местной администрации, прежде всего аппарату генерал-губернатора. Следовало устранить в крае фактическое административное двоевластие, поскольку здесь автономно действовал ряд структур, подчинявшихся только центральным органам в Санкт-Петербурге – Министерству финансов, Управлению земледелия и государственных имуществ, Переселенческому управлению и др.

Кроме того, российский бизнес выражал недовольство подчинением Туркестанского генерал-губернаторства исключительно Военному министерству. Предприниматели настаивали на включении Туркестанского края в единую систему управления российскими губерниями, то есть передачи генерал-губернаторства в ведомство Министерства внутренних дел. Однако против такой передачи выступили правительственные круги Российской империи – Кабинет министров, министерство юстиции, министерство внутренних дел. Считалось, что в условиях нестабильной политической ситуации в стране, сложившейся после событий 1905 г. и нараставшей неразберихи с реформами П.А. Столыпина, более целесообразно «сохранить существующую систему управления краем и его подчинение только военному министру до более спокойных времён» [8: 35-37]. Согласно правительственному мнению, «прежде чем менять систему управления краем разумнее было бы более детально разобраться в том, как работала действующая система управления и каково вообще его внутреннее положение» [8: 36].

В виду этих обстоятельств, а так же в связи с необходимостью дать правительству как можно более полные сведения о Туркестанском крае император Николай II принял решение о проведении особой сенатской ревизии в Туркестанском крае [8: 37]. Указом от 18 июня 1908 г. руководство ревизионной комиссией было поручено графу Константину Константиновичу Палену – представителю известного рода Паленов, входившему в высший круг петербургского дворянства.

Графа К.К. Палена по мировоззрению можно охарактеризовать как просвещённого колонизатора, энтузиаста цивилизаторской миссии России в Азии. «Русская власть, – писал он в одном из отчётов ревизии, – принесла в Туркестан общемировую цивилизацию в виде железных дорог, телеграфа, почты, культуры новых растений и обрабатывающей промышленности и тем



выдвинула край в Европу, приобщив к общемировому товарообороту» [9: Ч. 1: IV]. Практически же регион рассматривался «1) с точки зрения финансовой политики, как источник государственных доходов и как новый рынок для продуктов внутреннего производства; 2) с точки зрения колониальной политики, как новый объект перемещения избытка населения из Центральных губерний» [9: Ч. 1: III]. И надо отдать должное К.К. Палену как образцовому высокопоставленному чиновнику: в ходе ревизии и особенно при упорядочении собранных материалов его высокая цивилизаторская убежденность была значительно поколеблена картиной, открывшейся в крае, и он это открыто признавал.

Важно отметить, что к работе ревизионной комиссии были привлечены исключительно компетентные специалисты. Впоследствии в своих мемуарах К.К. Пален писал, что «собрал коллектив молодых чиновников, большинство из них лично знакомых с ним» [6: 3]. Некоторые имена членов комиссии приводятся в петербургских «Биржевых новостях»: «Сенатором графом К.К. Паленом представлен Министру юстиции для утверждения список двадцати семи лиц, приглашённых сенатором в качестве его сотрудников. Среди последних находятся преимущественно представители прокуратуры и судебной магистратуры. В качестве сотрудников сенатора Палена выезжают в Туркестан – прокурор Санкт-Петербургского окружного суда Трегубов, товарищи прокурора того же суда господ Аккерман, Савич и Штемпель, а также несколько представителей прокуратуры провинциальных судов и несколько человек провинциальных судей» [3]. По прибытии в Ташкент в конце июня 1908 г. К.К. Пален привлёк к работе комиссии также местных специалистов из числа аграрников.

Официально ревизия началась 18 июля. Разделившись на группы по несколько человек, члены комиссии начали проверку одновременно всех пяти областей края: Сырдарьинской, Самаркандской, Ферганской, Семиреченской и Закаспийской, а также обеих протекторатов: Бухарского эмирата и Хивинского ханства.

Необходимая информация, касающаяся буквально всех аспектов жизнедеятельности края, собиралась проверяющими членами комиссии весьма дотошно и скрупулёзно. К примеру, выяснилось, что данные о состоянии земледелия и землепользования в крае, представленные областными статистическими комитетами, не удовлетворяют требованиям комиссии, поскольку не позволяют исследовать их детально по отсутствию в них единой методики составления. Тогда по распоряжению К.К. Палена члены комиссии в краткий срок провели собственное полноценное статистическое обследование. Была составлена специальная «Анкета сенатской ревизии» и проведена сплошная подворная перепись дехканских хозяйств в заранее выбранных волостях, представлявших различные географические зоны и, соответственно, различный характер земледелия со своими приёмами землепользования и хозяйственным укладом. В соответствии с рельефом местности и климатическими особенностями края были выделены пять зон,



подлежащих анкетированию: долинная, долинно-степная, степная, предгорная и горная. Опрос охватил 29 волостей в 12 уездах (всего их было 15) в трёх так называемых «коренных областях» края – Сырдарьинской, Ферганской и Самаркандской [9: Ч. 1: VII, IX-X].

Эти статистические материалы представляют сегодня исключительно ценный исторический источник для исследователей, изучающих проблемы землепользования и землеустройства в Туркестане в начале XX в. Это было единственное официально проведённое подворное обследование дехканских хозяйств в Туркестане с момента образования края в 1867 г. и вплоть до 1917 г. Здесь даются не просто достоверные, но достаточно репрезентативные сведения, поскольку охват всех климатических зон в крае позволяет получить полное представление о землеустройстве и методах ведения хозяйства местными дехканами. Главное же, принципы и сама цель предпринятого исследования не дают повода усомниться в правдивом отражении картины. По ходу ревизии граф К.К. Пален лично объехал все пять областей и оба вассальных государства. В июле-августе 1908 г. он посетил Сырдарьинскую, Самаркандскую, Ферганскую и Закаспийскую области и Бухарский эмират, в июле-августе 1909 г. – Хивинское ханство и Семиреченскую область. Во время ревизорских поездок сенатор детально знакомился с ситуацией в делах управления областями и уездами, изучая документы местных канцелярий и заслушивая рапорты их начальников, а также расспрашивая во время приёма многочисленных посетителей. «Туркестанская туземная газета» систематически публиковала сообщения «О приёме посетителей графом К.К. Паленом» [14].

Во всех проверяемых областях и практически во всех ведомствах членами комиссии были вскрыты серьёзные злоупотребления чиновниками своим служебным положением, однако на первом месте среди них были противозаконные действия полиции. Особенно вопиющие факты коррупции были вскрыты в Закаспийской области. Газета «Новая Русь» летом 1908 г. писала: «Ревизия графа Палена ещё только началась, а уже выявлена картина поразительного казнокрадства, взяточничества и лихоимства в Закаспийской области» [7]. Здесь были преданы суду управляющий канцелярией начальника области полковник Стржалковский (в народе его называли «падишахом Закаспийской области»), полицмейстер г. Ашхабада, делопроизводитель канцелярии начальника области и многие другие [10]. В другом случае – в Сырдарьинской области была уволена почти половина начальников уездов, а из семи полицейских приставов пятеро были взяты под стражу за должностные преступления [13].

Естественно, что ревизия К.К. Палена вызвала большой переполох в туркестанском обществе. Газета «Вечер» писала, что её приезд разделил общество на две части. Первая, состоявшая из старожилов края, осуждала приезд проверяющих и стремилась доказать, что за местной администрацией не числится никаких особых преступлений. Вторая, состоявшая преимущественно из людей, приехавших в край недавно и трезво относящаяся



к происходящим событиям, выступала за необходимость радикальной чистки «мирно покоящихся сатрапов с их приспешниками» [13].

Туркестанская администрация, что также естественно, была крайне недовольна назначением ревизии и с самого начала оказывала ей скрытое противодействие. «С приездом ревизующих в край, – писали «Биржевые ведомости», – по канцелярии Туркестанского генерал-губернатора было сделано распоряжение – отвечать сенатору только на поставленные вопросы. Давать справки елико возможно в сокращённом виде». В статье приводился такой пример: «Сенатор затребовал от канцелярии Туркестанского генерал-губернатора в трёхдневный срок справку о полиции. Составление этой справки было поручено за 50 рублей человеку, незадолго до этого уволенному со службы по представлению Палена за взяточничество» [11].

Размеры обнаруженных в Туркестане злоупотреблений и коррупции в различных ведомствах оказались столь велики, что К.К. Пален с частью своих сотрудников 20 ноября 1908 г. выехал в Санкт-Петербург «для совместного решения в центре с заинтересованными ведомствами некоторых, возникших при ревизии, щекотливых вопросов» [7]. К 14 декабря Туркестан покинули и остальные члены ревизии.

Они вернулись в Ташкент во главе с К.К. Паленом через пять месяцев – 13 апреля 1909 г. и возобновили работу ревизионной комиссии до её завершения 18 июля того же года. Таким образом, ревизия Туркестанского края была осуществлена в два этапа: первый – с июля по декабрь 1908 г.; и второй – с апреля по июнь 1909 г. В сумме по времени это заняло примерно полгода с пятимесячным перерывом между 1908 и 1909 гг.

Второй этап 1909 г. сложился для членов ревизионной комиссии столь же сложно и напряжённо, но особенно для её руководителя. В мае К.К. Пален провёл в Ташкенте трёхнедельное совещание с мусульманскими правоведами, на котором обсуждались и уточнялись основные положения шариата для издания их в виде нормативного документа на русском языке к использованию его в «народном судопроизводстве» (как именуется в отчётах институт казиев). В июне сенатор посетил Бухарский эмират и Хивинское ханство, где его с большим почётом принимали бухарский эмир и хивинский хан. В начале июля К.К. Пален побывал в Ферганской области с обследованием состояния работ по разработке нефтяных и угольных месторождений.

В целом можно констатировать, что ревизия К.К. Палена навела некоторый порядок в работе администрации генерал-губернаторства. Десятки чиновников были отданы под суд или освобождены от должностей. Ещё до подведения итогов ревизии в марте 1909 г. был отправлен в отставку генерал-губернатор П.И. Мищенко, пробыв на этом посту меньше года, на его место был назначен генерал А.В. Самсонов.

Реакция туркестанского общества на выявленные ревизией масштабные злоупотребления администрации и правоохранительных органов была неоднозначной: одни одобряли разоблачения коррупции, другие считали, что ревизия Палена «сильно сгущает краски». В частности, генерал



А.Н. Куропаткин, который в 1890-1898 гг. возглавлял Закаспийскую область, опубликовал в газете «Туркестанский курьер» свой протест: «Ревизия Палена сильно сгущает краски о сплошном лихоимстве, обнаруженном в Закаспийской области». По его мнению, это объяснялось «появившейся в политике и общественных кругах России тенденцией показать, что военное управление на окраине отжило своё время и что окраина должна быть приближена к общегражданским условиям» [2]. Напротив, подведомственное население Закаспийской области приветствовало сам факт такой ревизии и особенно её результаты. Позднее К.К. Пален вспоминал, что «местные жители области обращались в Санкт-Петербург к Императору с просьбой регулярно направлять в Туркестан такие же инспекции, чтобы предотвратить ту ситуацию, которая сложилась в Закаспийской области» [6: 165].

Мнение образованной части общества в Ташкенте и Петербурге о причинах недостатков, вскрытых ревизией в Туркестанском крае, также разделилось. Статья в «Современном слове» находила причину в том, что «из центра, используя окраинное положение Туркестана, систематически, программно посылали всё, что есть бездарного, невежественного, неумелого. Если уж никак нельзя было двинуть чиновника вперёд по службе, то его отсылали в Туркестан. Там, на дальней окраине, повышение по службе шло быстро. Поэтому в Туркестане все ведомства конкурировали между собой в области злоупотреблений» [1]. Действительно, такой вывод имел основания в отчётах К.К. Палена, в которых неоднократно отмечался низкий профессиональный уровень во всех ведомствах колониальной администрации и правоохранительных органов края. Сам сенатор в качестве основной причины повальной некомпетентности указывал на то, что в край хлынул поток авантюристов и людей, ищущих лёгкой наживы, причём особенно много их встречалось среди крестьян-переселенцев.

18 июля 1909 г. все члены комиссии, наконец, выехали в Санкт-Петербург, где начали готовить отчёты о своей колоссальной работе, проделанной за указанный период. Вслед за ними в Кабинет министров хлынул из Туркестана поток жалоб на действия ревизии. «Санкт-Петербургские ведомости» сообщали, что эти жалобы были оставлены без движения до тех пор, пока сенатор не приведёт в порядок все собранные материалы. Затем они будут опубликованы [12].

К.К. Пален с большой ответственностью подошёл к подведению итогов ревизии. Отчёты комиссии в виде 19 томов были изданы в 1910-1911 гг. в Санкт-Петербурге, а в 1911 г. в Ташкенте вышел из печати 20-й том с «Шариатскими статьями», которые К.К. Пален подготовил ещё летом 1909 г. Эти 20 томов отчётов, скрупулёзно разделённые по тематике и разбирающие каждый какой-либо один насущный вопрос управления или хозяйствования, представляют собой уникальный, богатейший по полноте и достоверности собранный материал источник по истории колониального Туркестана начала XX в., хотя дальнейшая их служебная судьба была не завидной. Ричард А. Пирс, автор предисловия к мемуарам К.К. Палена, пишет: «Доклады



Палена были напечатаны в огромных объёмах, но затем, как и доклады многих предыдущих исследований, были забыты. Дела в Туркестане пошли своим чередом, без изменений, до революционного 1917 года» [5: 47].

### **Заключение**

Сегодня материалы ревизии К.К. Палена составляют неотъемлемую часть источниковой базы изучения истории Узбекистана в целостном контексте истории Центральной Азии и предстают как комплексный источник, дающий исследователю – не только историографу, но и политологу, специалисту в вопросах геополитики, – информацию как об отдельных событиях и фактах, характеризующих эпоху начала XX века, так и позволяющий увидеть в целом картину колониальной политики России – динамику изменений в хозяйственной и культурной жизни края, развития здесь товарно-денежных отношений и освоения недр со дня включения его в состав империи. Все эти процессы раскрываются К.К. Паленом как с позитивной, так и с негативной сторон.

Для нас же важно подчеркнуть, что методологический потенциал, заключённый в подходах-исследованиях К.К. Палена и членов его комиссии, представляет практический интерес не только для академических историков, но и для политологов, специалистов в вопросах геополитики.

### **Список литературы:**

1. В Туркестане. Злоупотребления администрации. // Современное слово, 1909. № 580.
2. Генерал А.Н. Куропаткин о туркестанской ревизии. // Туркестанский курьер, 1909. № 81.
3. К предстоящей ревизии Туркестана. // Биржевые ведомости, 1908. № 10476.
4. Махмудова Н.Б. Историко-источниковедческий обзор отчётов ревизии сенатора К.К. Палена. [Текст научной статьи]. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriko-istochnikovedcheskiy-obzor-otchetov-revizii-senatora-k-k-palena>
5. Махмудова Н.Б. Развитие административного управления, социально-экономических и культурных процессов в колониальном Туркестане в начале XX века. – Ташкент: Фан, 2015. – 200 с.
6. Mission to Turkestan. Being the memoirs of Count K.K. Pahlen 1908-1909. Edited and Introduced by Richard A. Pierce. Translated by N.J. Couriss. Published in Association with the Central Asian Research. Centre London Oxford University Press. New York-Toronto. 1964. – 237 p.
7. Ревизия Палена. // Новая Русь, 1908. № 44.
8. Пален К.К. Краевое управление. Отчёт по ревизии Туркестанского края, произведённой по Высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленом. – СПб.: Сенатская типография, 1910. – 270 с.
9. Пален К.К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. 1-2 части. – СПб.: Сенатская типография, 1911. – 432 с.



10. Сенаторская ревизия. // Новое время, 1908. № 11703.
11. Сенаторская ревизия графа Палена. // Биржевые ведомости, 1908. № 11232.
12. Сенаторская ревизия Туркестана. // Туркестанский курьер, 1909. № 232-233.
13. Ташкентская администрация и ревизия. // Вечер, 1908. № 214.
14. Туркестанская туземная газета. 1908. №№ 55, 57, 78, 84, 86, 90.



**PUBLITSIST SAYDI UMIROV OCHERKLARIGA BIR NAZAR**

**Fayzullayeva Zulfiya Sayidovna**

О‘zbekiston jurnalistika va  
ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
Inson huquqlari va MEDIA kafedrasini  
katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli publitsist Saydi Umirovning ko‘p qirrali ijodiy faoliyati davomida yozgan maqola, ocherk, taqrizlari tahlil qilindi, ularga baho berildi. Shuningdek, publitsistika janrlari xususiyati, ularning S. Umirov ocherklarida aks etishi, ijdkor tomonidan qalamga olingan mavzular va taniqli insonlar haqida qisqacha fikr yuritildi.

**Kalit so‘zlar:** publitsistika, janr, portret ocherki, taqriz-ocherk, yo‘l ocherki, taqriz.

**A LOOK AT THE ESSAYS OF PUBLICIST SAYDI UMIROV**

**Zulfiya S. Fayzullaeva**

University of journalism and  
mass communications of Uzbekistan  
Senior Teacher of the Department of  
Human Rights and Mass Media

**Abstract:** This article analyzes and evaluates the articles, essays, and reviews written by the renowned publicist Saydi Umirov throughout his multifaceted creative career. The features of journalistic genres, their reflection in S. Umirov's essays, the themes and famous figures touched upon by him were also briefly examined.

**Key words:** publicism, genre, essay-portrait, essay-review, travel essay, review.

**ВЗГЛЯД НА ОЧЕРКИ ПУБЛИЦИСТА САЙДИ УМИРОВА**

**Файзуллаева Зулфия Саидовна**

Университет журналистики и  
массовых коммуникаций Узбекистана  
Старший преподаватель кафедры  
Права человека и МЕДИА

**Аннотация:** В данной статье проанализированы и оценены статьи, очерки и рецензии, написанные известным публицистом Сайди Умировым на



протяжении его многогранной творческой деятельности. Также были кратко рассмотрены особенности жанров публицистики, их отражение в очерках С. Умирова, темы и известные личности, затронутые им.

**Ключевые слова:** публицистика, жанр, очерк-портрет, очерк-обзор, путевой очерк, обзор.

Ocherk janri – o‘zbek publitsistikasida real voqelikni tahlil etish, muallif nuqtayi nazarini obrazli tarzda taqdim etish xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ocherk so‘ziga “hayotiy faktlarning qisqacha tasviridan iborat kichikroq badiiy-publitsistik asar”, deb ta’rif berilgan [1]. O‘zbek matbuotshunosligida janrlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan olim, filologiya fanlari doktori, professor Ochil Tog‘ayev o‘zining “Publitsistika janrlari” kitobida “Ocherk murakkab, eng ziyrak, ixcham, hozirjavob janrdir”, – deb yozadi [2]. Bu janrda ijod qilgan Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Elbek, Shokir Sulaymon, Ra‘no Uzoqova va boshqalarning portret ocherklarini misol sifatida keltiradi. Yana bir atoqli o‘zbek matbuotshunosi Boybo‘ta Do‘stqorayev esa “ocherk” atamasi o‘zbek matbuoti va adabiyotiga XX asr boshlaridan, asosan rus adabiyoti, matbuoti orqali kirib keldi, mumtoz adabiyot namunalarida bu termin uchramasligini” ta’kidlaydi [3]. U o‘zining “Ocherk janrining paydo bo‘lish tarixi, xususiyatlari” maqolasida ocherkka shunday ta’rif beradi: “Ocherk nega yoziladi? Publitsist ocherk yozishda bir qancha maqsadni o‘z oldiga qo‘yishi mumkin. Eng avvalo, biron-bir insonning fazilatlarini, ibratli ishlarini boshqalarga namuna sifatida tasvirlab, muayyan ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy-pedagogik jihatdan saboq bo‘lsa, degan niyatni ko‘zlaydi, bunday xislatlarning jamiyat a‘zolari orasida ko‘payishini istaydi” [4].

O‘zbek adabiyotiga ocherk yangi janr sifatida kirib kelgan bo‘lsa ham, uning ildizlari mumtoz adabiyotning ilk namunalariga borib taqaladi. Macalan, O‘rxun-Enasoy va Kultegin yodnomalarida, “Boburnoma” asarida ocherkka xos bo‘lgan belgilar real voqelikni to‘g‘ridan to‘g‘ri va bevosita tasvirlash, shaxsiy kuzatishlarga asoslanish, shaxs va voqeani tarixiy-ijtimoiy nuqtayi nazardan baholash xususiyatlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Ocherk jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi. Ocherk janrining shakllanishiga dastlab Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor singari adiblar, keyinchalik Nazir Safarov, Yo‘ldosh Shamsharov, Habib No‘mon, Sunnatillo Anorboyev, Rasul Rahmon va boshqalar katta hissa qo‘shdilar.

Saydi Umirov publitsistikasida ocherk janri alohida o‘rni tutadi. U o‘zining publitsistik qobiliyatini aynan shu janr imkoniyatlaridan foydalangan holda rivojlantirgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning publitsistik asarlarida ijtimoiy voqelik va badiiy haqiqat o‘rtasidagi uyg‘unlik o‘ziga xos tarzda ko‘zga tashlanadi. Publitsistik janrlarning zamonaviy ko‘rinishlari bo‘yicha izlanishlar olib borgan olima Iroda Nasimovaning ta’kidlashicha, “ocherkning eng asosiy xususiyati bu obyektning jonli, badiiy tasvir va ifoda vositalari orqali obrazli ko‘rsatib berishdir” [5].

Jurnalistik ijodda portret insonning nafaqat tashqi, balki ichki xususiyatlarini, ya’ni alohida shaxsning ma’naviy hayotini ham ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.



Aynan shu bois portret ocherkida insonning atrofidagilar bilan ijtimoiy munosabatlari (ijtimoiylik jihati) ham, shuningdek alohida shaxsning hayotida ro‘y beradigan ichki, ruhiy jarayonlar ham aks ettirish obyekti bo‘lishi mumkin. Shaxsni ijtimoiy tahlilga tortish va bunda uning ruhiyati tahliliga alohida e‘tibor qaratish, shubhasiz, insonni tugal tasvirlash ma‘nosida portret ocherki imkoniyatlarini kengaytirdi.

Taniqli rus olimi V.V. Voroshilovning ta‘rifiga ko‘ra, portret ocherki inson, uning hayoti, fikr-mulohazalari haqidagi hikoyaga asoslanadi. Lekin har qanday taqdir ham ocherk yozish uchun mavzu bo‘la olmaydi, balki davrni, ijtimoiy voqelikni, shaxsni, uning o‘rnini aniq shart-sharoitda eng yorqin aks ettirgan shaxsning hayotigina shunday mavzu bo‘lishi mumkin [6].

Boshqa bir tadqiqotchi D.V.Tumanovning fikricha, portret ocherki – bu kimningdir hayoti haqidagi siqiq hikoya. Uni yozish oson emas, qolaversa, bir necha soatlik muloqot mobaynida boshqa insonni anglash ham qiyin [7]. Agar kishi haqidagi hikoya uning anketa ma‘lumotlari yoki qahramonning mehnat yo‘lini tasvirlash bilangina cheklanib qolsa, inson hayotining axloqiy go‘zalligini, shaxsning ijodiy jihatdan namoyon bo‘lishi jihatlarini to‘lig‘icha ochib berish qiyin.

Janrlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan rus olimi A.A.Tertichniyning fikriga ko‘ra, shaxs portret ocherkining predmetidir. Shunday turdagi maqolaning mohiyati hikoya qilinayotgan qahramon haqida auditoriyada muayyan tasavvur uyg‘otishdan iborat. Bu murakkab vazifani bajarar ekan, jurnalist, odatda, eng muhim narsani ochib berishga ahamiyat qaratadi, ya‘ni mazkur qahramon qaysi qadriyatlarga xizmat qilishi, hayoti mazmunini nimada ko‘rishini aks ettirishga urinadi. Zero bu har bir inson hayotida o‘ta muhim jihat hisoblanadi [8]. Saydi Umirov ijodini tadqiq qilish jarayonida uning ko‘plab ocherklari o‘rganib chiqildi va ularni shartli ravishda uchga: portret (siymo), taqriz-ocherk va yo‘l ocherkiga bo‘lib tadqiq etish mumkinligi aniqlandi.

Ularning ichida avval portret ocherklariga to‘xtalish joiz. Chunki Saydi Umirov publitsistikasida portret ocherklari kattagina qismni tashkil qiladi. Uning portret ocherklarida o‘ziga xos qiziqarli topilmalarni, mantiqiy bog‘lamlarni uchratish mumkin. Misol uchun, “Sayid Rizo Alizoda” ocherkida o‘n to‘rt tilni mukammal biladigan, quvvayi hofizasi kuchli samarqandlik olim Sayid Rizo Alizodaning hayot yo‘li, ulug‘ ishlari qalamga olingan bo‘lsa, “Chingizning asl tarjimoni” ocherkida mahoratli tarjimon Asil Rashidov portretiga aniq chizgilar, ularning mohirona tarjimalari, mo‘jizalari, so‘zni qanday his qila olishi haqida mavjlanib fikr yuritilganiga guvoh bo‘lamiz. Yoki O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, shoir Eshqobil Shukur haqida yozilgan “Ash‘orlari esh, qobil ijodkor” nomli ocherki sarlavhasining o‘zidayoq ko‘z o‘ngingizda qahramonning surati va siyrati gavdalanadi.

Saydi Umirov ocherklaridagi barcha mavzular, qahramon va personajlar real va o‘ziga xos bo‘lib, ularni aks ettirishda publitsist obraz yaratuvchi elementlardan mahorat bilan foydalanilgan. U o‘z ocherklari qahramonlarini tasodifan tanlamaydi yoki ular haqida yozishga shoshilmaydi. Ularning hayoti va faoliyatini sinchkovlik



bilan o'rganadi. Yozish uchun yetarli fakt va ma'lumotlarga ega bo'lsa ham, shaxsning tashqi va ichki olamini hafsala bilan tadqiq qiladi.

Misol uchun, Saydi Umirovning "Xazinabon" nomli portret-ocherki Navoiy kon-metallurgiya kombinati Bosh direktori, O'zbekiston Qahramoni Quvondiq Sanaqulov hayoti va faoliyati haqida. Muallif qahramoni bilan ko'p muloqotda bo'ladi va shu asnoda suhbatdoshi nafaqat o'z ishining fidoyisi, yuqori malakali mutaxassis, rahbar, balki adabiyotga, san'atga, ilm-fanga ishtiyoqi baland inson ekanligini ochib beradi. "Bu safar Quvondiq Sanaqulov bilan kabinetida yarim soatcha muloqot qildik. Qahramon shoirimiz A. Oripov iltimosiga ko'ra, tavalludining 75-yillik to'yiga taklifnoma hamda "Everest va ummon" nomli yangi kitobini topshirdim. Muloqot jarayonida Bosh direktorning dunyoqarashi kengligi, bilimi o'tkirligi, fikri teranligiga, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiyot, adabiyot, san'at sohalaridagi bilimi, tasavvuri kengligiga qoyil qoldim: "Abdulla aka bilan qalinmiz, ko'p suhbatlashganmiz, ulfatchilik qilganmiz, ko'p kitoblarini o'qiganman, anchasini o'zi taqdim etgan, yangi kitobini ham shu kecha oxirigacha o'qib chiqdim, she'rlari har qachongiday zo'r, lekin ayrimlarida qandaydir nolishmi, zorlanishmi sezganday bo'ldim, hayron qoldim, dili nozik inson-da" – deya faylasufona, munaqqidona fikr bildirgandi o'shanda.

Muhammad Ali, Iqbol Mirzo, Sirojiddin Sayyid, Sa'dulla Hakim, Azim Suyun kabi shoirlar, Farmon Toshev, Abdurauf Qorjovov, Po'lat Jozilov kabi jurnalistlar, Shog'dor Ahmedov, Nizomiddin Haydarov kabi olimlar bilan ayniqsa yaqinligini bilardim, lekin o'sha gurgunda shuncha ko'p ilm, ijod, san'at ahlini ta'rif-tavsif qildiki, bilganlarim holva ekan" [9]. Shu tariqa minglab ishchi-xodimlar ishlaydigan ulkan korxonalar rahbari shaxsiyatining o'ziga xos qirralarini ochib berishga harakat qiladi. Adabiyotga, ilm ahliga e'tiboridan quvvayi hofizasi kuchli, kitobxon rahbar sifatida kashf qiladi.

Saydi Umirovning "Dorilfununlar taqdirimda" (2008) va "Ma'naviyat mulkiga sayohat" (2013) nomli salmoqli kitoblaridan uzoq yillar davomida yozib kelayotgan ijodiy taqdir xususiyatiga ega ocherk va maqolalari o'rin olgan. Jumladan, olim Sharof Rashidov, Chingiz Aytmatov, Asqad Muxtor, Asil Rashidov, Ozod Sharafiddinov, O'tkir Hoshimov, Ibrohim G'afurov, Boybo'ta Do'stqorayev, Tursunboy Adashboyev, Abdusaid Ko'chimov, Mirpo'lat Mirzo, Murod Ibrohimov, G'ulom G'afurov, Solih Qosimov, Begali Qosimov, Anatoliy Agranovskiy, Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirmqul Qodirov, Umarali Normatov, Ahmadjon Meliboyev, Muhammad Yusuf, Mashrab Boboyev, Erkin Vohidov, Erkin A'zam, Tal'at Solihov, Xurshid Do'stmuhammad, Tilak Jo'ra, Sharifa Salimova, Sa'dulla Hakim, Chorsham' Ro'ziyev, Eshqobil Shukur, Ochil Tog'ayev, Shodmon Otabek, Iqbol Qo'shshayeva va boshqalarning hayoti, ilmiy faoliyati hamda ijodiga bag'ishlangan maqolalar yozgan va ularning aksariyati portret ocherki janrida yaratilgan bo'lib, nomlari tilga olingan ijodkorlar, olimlarning hayoti va ijodiy faoliyati atroflicha tahlil-tadqiq etilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2020. 3-жилд. – Б. 162.
2. Тоғаев О. Публицистика жанрлари. – Тошкент, 1987.
3. Дўстқораев Б. Очерк турлари. Босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. – Б. 514.
4. Кўрсатилган манба. – Б. 374.
5. Насимова И. Публицистик жанрларнинг замонавий интерпретацияси. Фил. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2024. – Б. 61.
6. Ворошилов В. В. Журналистика: учебник / В. В. Ворошилов. – М.: КНОРУС, 2010. – С. 180.
7. Туманов Д.В. Очерк / Д.В. Туманов // Исследовано в России: справ. — URL: [http://jurn.by.ru/jan\\_15.html](http://jurn.by.ru/jan_15.html)
8. Тертычный А.А. Жанры периодической печати: учеб. пособие / А.А. Тертычный. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С. 250.
9. Умиров С. Сехрли ва меҳрли сўз. – Тошкент: “BODOMZOR INVEST” нашриёти, 2017. – Б. 66–67.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

MILLIY BRENDINGNI RIVOJLANTIRISHDA DIGITAL PR  
INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI: INFOPOVOD MEKANIZMI VA  
RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA MODELLARI TAHLILI

*Aslanova Aziza Faxriddinovna*

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy*

*kommunikatsiyalar universiteti, Mustaqil tadqiqotchi*

*Pochta manzil: [aziamir17@gmail.com](mailto:aziamir17@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Raqamli transformatsiya sharoitida brendni shakllantirish va tanitish jarayoni an'anaviy kommunikatsiya vositalaridan tubdan farq qilmoqda. Axborot oqimining tezligi, auditoriya segmentatsiyasi imkoniyatlari va interaktiv platformalarning kengayishi Digital PR instrumentlarini brendni rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biriga aylantirdi. P. Kotler brendni iste'molchi ongida shakllanadigan barqaror assotsiatsiyalar tizimi sifatida talqin etadi (Kotler, 2017). S. Anholt esa milliy brendni davlatning reputatsion kapitali bilan bog'liq kompleks imij tizimi sifatida izohlaydi (Anholt, 2010). J. Grunigning ikki tomonlama simmetrik kommunikatsiya modeli esa PRning strategik boshqaruvdagi o'rnini asoslab beradi (Grunig, 2001). Mazkur nazariy yondashuvlar Digital PRning brandingdagi rolini tushuntirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** milliy branding, Digital PR, infopovod, kontent-marketing, storytelling, ijtimoiy tarmoqlar, influencer marketing, nativ reklama, brend identiteti, reputatsion kapital, raqamli kommunikatsiya, interaktivlik, davlat brendi, kommunikativ strategiya.

Internet hozirgi kunda zamonning oltin kalitiga yoki strategik quroliga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. U bir vaqtning o'zida ishonchlilik masalasini ko'taradigan hamda hozirgi giper-raqobat muhitida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. So'nggi yigirma yil ichida axborot texnologiyalari asosiy masalaga aylandi. Insonlarning o'zaro munosabatlaridagi eng katta o'zgarishlardan biri bu onlayn ijtimoiy tarmoqlarning rivojlangani va ularning sonining ortishi bo'ldi. Ijtimoiy faoliyatni yengillashtiruvchi veb-platformalarning tez o'sishi inson faoliyati, yashash joylari va o'zaro munosabatlarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Haqiqiy his-tuyg'ular dunyosi ijtimoiy virtual makonga ko'chdi, natijada butun dunyodan odamlarni birlashtiradigan onlayn hamjamiyatlar yuzaga keldi.

Raqamli transformatsiya sharoitida brendni shakllantirish va tanitish jarayoni an'anaviy kommunikatsiya vositalaridan tubdan farq qilmoqda. Axborot oqimining tezligi, auditoriya segmentatsiyasi imkoniyatlari va interaktiv platformalarning kengayishi Digital PR instrumentlarini brendni rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biriga aylantirdi. Ayniqsa, milliy va institutsional brandingda infopovod, kontent-marketing, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia formatlar va influencer hamkorliklari muhim o'rin egallaydi.



**Digital PR** – bu brend imijini raqamli platformalar orqali shakllantirish, mustahkamlash va boshqarishga qaratilgan strategik kommunikatsiya jarayonidir. D. Scott raqamli PRni onlayn media va ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriya bilan bevosita muloqot qilish imkonini beruvchi yangi kommunikatsion paradigma sifatida tavsiflaydi (Scott, 2015). K. Keller esa brend kapitali auditoriya bilan muntazam va izchil kommunikatsiya orqali shakllanishini ta’kidlaydi (Keller, 2013). Digital PR quyidagi:

- brend haqida xabardorlikni oshirish;
- auditoriya bilan ikki tomonlama muloqotni yo‘lga qo‘yish;
- reputatsiyani boshqarish;
- inqirozli vaziyatlarda tezkor kommunikatsiyani ta’minlash;
- brend narrativini shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Digital PRning ustunligi – natijadorlikni o‘lchash imkoniyati (reach, engagement, conversion ko‘rsatkichlari) va auditoriyani aniq segmentlarga ajratish imkonidir.

### ***Infopovod – brendni ilgari surishning strategik triggeri***

Infopovod (kutilmagan voqea) – bu auditoriya e’tiborini jalb qiluvchi voqea, tashabbus yoki yangilik bo‘lib, u brend kommunikatsiyasini faollashtiruvchi boshlang‘ich nuqta vazifasini bajaradi. M. Castells axborot jamiyatida e’tibor resursi eng muhim kapitalga aylanishini ta’kidlaydi (Castells, 2009). Shu nuqtai nazardan, infopovod – e’tibor iqtisodiyotida brendni ko‘rinadigan qiluvchi mexanizm sifatida qabul qilinadi.

Brending kontekstida infopovod brendni dolzarb axborot oqimiga integratsiya qilish, media e’tiborini jalb etish, ijtimoiy tarmoqlarda muhokama maydonini yaratish va brendning strategik pozitsiyasini mustahkamlash kabi vazifalarni bajaradi.

Infopovod quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Ijtimoiy ahamiyatlilik;
2. Yangilik elementi;
3. Emotsional ta’sir;
4. Media uchun qulay format;
5. Brend narrativi bilan uyg‘unlik.

Mazkur xususiyatlar dasturi brendni rivojlantiruvchi infopovodga aylanishiga xizmat qilishi mumkin. Muhimi, u uzoq muddatli strategiya bilan bog‘langan bo‘lishi lozim.

### ***Kontent-marketing va storytelling***

Kontent-marketing brend haqida oddiy axborot tarqatishdan ko‘ra, auditoriya uchun qiymat yaratishga qaratilgan strategik kommunikatsiya usuli hisoblanadi. F. Pulizzi kontent-marketingni “aniq belgilangan auditoriyani jalb etish va saqlab qolish maqsadida foydali, muhim va izchil kontent yaratish hamda tarqatish jarayoni” sifatida ta’riflaydi (Pulizzi, 2014). Shuningdek, K. Keller brend kapitali aynan tizimli va barqaror kommunikatsiya orqali shakllanishini ta’kidlaydi (Keller, 2013).



Bloglar, tahliliy maqolalar, ekspert intervyulari, video-roliklar va infografikalar orqali brend o'zining ekspertlik mavqeini mustahkamlaydi. Masalan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining grant dasturlari yoki innovatsion loyihalar haqida muntazam ravishda e'lon qilinayotgan sharh va videomateriallari vazirlikni innovatsion rivojlanish subyekti sifatida ko'rsatadi. Bunda kontent faqat yangilik emas, balki tizimli imij yaratish vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Storytelling esa brendni faktlar majmui sifatida emas, balki ma'no va qadriyatlar orqali ifodalangan hikoya sifatida taqdim etadi. J. Fog, C. Budtz va B. Yakobsen storytellingni "brendning identitetini insoniy tajriba orqali ochib beruvchi narrativ strategiya" deb izohlaydi (Fog et al., 2005). Shu ma'noda hikoya brendni insoniylashtiradi va auditoriya bilan emotsional bog'lanish hosil qiladi. Nazariy jihatdan M. Castells ham axborot jamiyatida hikoya va ma'no ishlab chiqarish kuchi ijtimoiy ongni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi (Castells, 2009). Storytelling brendni oddiy axborot obyektidan ijtimoiy-madaniy qadriyat tashuvchisiga aylantiradi. Shunday qilib, kontent-marketing brendning ekspertlik kapitalini mustahkamlasa, storytelling uning emotsional kapitalini oshiradi. Ushbu ikki instrument uyg'un qo'llanganda milliy yoki institutsional brend barqaror reputatsion asosga ega bo'lishini ta'minlaydi.

#### ***Ijtimoiy tarmoqlar va interaktivlik***

Ijtimoiy tarmoqlar Digital PRning asosiy kommunikatsion maydoni sifatida brend va auditoriya o'rtasidagi uzluksiz muloqotni ta'minlaydi. Ular orqali tezkor axborot yetkazish, jonli muloqotni yo'lga qo'yish, auditoriya fikr-mulohazalarini monitoring qilish hamda brendga sodiqlikni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Raqamli platformalar nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki ikki tomonlama kommunikatsiya muhitini yaratadigan interaktiv tizim hisoblanadi. Ayniqsa, jonli efirlar, savol-javob sessiyalari, onlayn so'rovnomalar va real vaqt rejimidagi muhokamalar auditoriya ishonchini mustahkamlab, brendni ochiq, shaffof va muloqotga tayyor institut sifatida namoyon etadi. Shu jihatdan ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy branding jarayonida reputatsion kapitalni shakllantirishning eng samarali instrumentlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

#### ***Influencer marketing va nativ reklama***

Influencer marketing (ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar orqali marketing) – bu brend xabarini maqsadli auditoriyaga jamoatchilik ishonchiga ega bo'lgan shaxslar orqali yetkazishga qaratilgan strategik kommunikatsiya instrumentidir. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul "reference group influence" nazariyasi bilan izohlanadi, ya'ni auditoriya o'z qarorlarini ishonchli manba yoki fikr yetakchilari ta'siri ostida shakllantiradi. P. Brown va A. Hayes influencer marketingni raqamli muhitda ijtimoiy kapital va ishonch mexanizmiga asoslangan kommunikatsiya shakli sifatida ta'riflaydi (Brown & Hayes, 2008). Mazkur instrument ayniqsa yosh auditoriya bilan ishlashda samarali hisoblanadi, chunki raqamli avlod an'anaviy reklamaga nisbatan blogerlar, ekspertlar yoki jamoatchilikda obro'ga ega shaxslar fikriga ko'proq ishonadi. Shu jihatdan influencer marketing brendning insonlashuviga, ya'ni rasmiy obrazdan shaxsiy va ishonchli obrazga o'tishiga xizmat qiladi.



Nativ reklama esa brend xabarini mediakontent tarkibiga organik ravishda integratsiya qilishga asoslangan kommunikatsiya usulidir. Unda reklama kontentning tabiiy qismi sifatida qabul qilinadi va auditoriyada agressiv ta'sir yoki majburiy reklama taassurotini kamaytiradi. J. Wojdyski va N. Evans tadqiqotlariga ko'ra, nativ reklama auditoriya tomonidan kamroq qarshilikka uchraydi va axborotni qabul qilish darajasini oshiradi (Wojdyski & Evans, 2016).

Nativ format brendning mediamuhitga moslashuvchanligini ta'minlaydi, ayniqsa jurnalistik materiallar, ekspert sharhlari, intervyu yoki tahliliy maqolalar shaklida berilganda u ishonch darajasini oshiradi. Shuningdek, mazkur usul kommunikatsiyani uzluksiz va yumshoq tarzda amalga oshirish imkonini berib, brendning reputatsion kapitalini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, influencer marketing auditoriya ishonchini shaxsiy ta'sir orqali shakllantirsa, nativ reklama kontentga organik integratsiya orqali qabul qilish darajasini oshiradi. Ushbu ikki instrument uyg'un qo'llanilganda Digital PR tizimida brend pozitsiyasini strategik mustahkamlashga xizmat qiladi.

Brendni tanitishda Digital PR instrumentlari kompleks va tizimli qo'llanilgandagina samarali natija beradi. Infopovod strategik trigger sifatida brend kommunikatsiyasini faollashtiradi, kontent-marketing va storytelling brend mazmunini chuqurlashtiradi, ijtimoiy tarmoqlar interaktivlikni ta'minlaydi, influencer marketing esa auditoriya ishonchini oshiradi. Nazariy jihatdan Kotler (2017), Anholt (2010), Grunig (2001), Keller (2013), Scott (2015) va Castells (2009) tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar Digital PRning brendingdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Zamonaviy brendingda Digital PR instrumentlari nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki reputatsiya boshqaruvi, auditoriya bilan hamkorlik va uzoq muddatli imijni shakllantirish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Anholt S. *Places: Identity, Image and Reputation*. – London: Palgrave Macmillan, 2010. – 256 p.
2. Brown D., Hayes N. *Influencer Marketing: Who Really Influences Your Customers?* – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2008. – 312 p.
3. Castells M. *Communication Power*. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 571 p.
4. Fog K., Budtz C., Yakaboysen B. *Storytelling: Branding in Practice*. – Berlin: Springer, 2005. – 182 p.
5. Grunig J. E. *Two-Way Symmetrical Public Relations Model* // *Public Relations Review*. – 2001. – Vol. 27. – P. 11–30.
6. Keller K. L. *Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity*. – 4th ed. – Pearson Education, 2013. – 608 p.
7. Kotler P., Keller K. L. *Marketing Management*. – 15th ed. – Pearson Education, 2016. – 714 p.
8. Pulizzi J. *Epic Content Marketing*. – New York: McGraw-Hill, 2014. – 352 p.
9. Scott D. M. *The New Rules of Marketing and PR*. – 5th ed. – Hoboken: Wiley, 2015. – 480 p.



10. Wojdyski B. W., Evans N. J. Going Native: Effects of Disclosure Position and Language on the Recognition and Evaluation of Online Native Advertising // *Journal of Advertising*. – 2016. – Vol. 45(2). – P. 157–168.



## QARAQALPAQ ADAM ATLARINI ҮYRENIWDIŃ AHMIYETI

**A.K.Kalibaeva**

Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

3-kurs studenti

**Annotaciya:** Maqalada antroponimika, onıń izertlew obykti, qaraqalpaq til biliminde izertleniwı, qaraqalpaq xalqında at qoyıw dástúrleri, onıń ózine tán belgileri, semantikalıq ózgeshelikleri lingvistikalıq aspektte analiz etilgen.

**Tayanısh sózler:** antroponimika, menshikli adam atı, adam atları, at qoyıw, at tańlaw sebepleri, xalıq, millet, dástúr, isenim.

Til xalıqtıń ruwxıy baylıqlarınan biri bolıp, ol milletti tanıwshı tiykarǵı belgilerden biri esaplanadı. Onomastikalıq materiallar (adam atları, jer-suw, orınlardıń atamaları) óziniń eski bolıwı, tariyxıylıǵı, tilge tiyisli eski elementlerdi jaqsı saqlay alıwı, uzaq dáwirler qollanıwı menen ajralıp turadı. Menshikli atamalardıń til birlikleri arasındaqı tutqan ornınıń áhmiyetli ekenligi lingvistikalıq, tariyxıy, etnografiyalıq, etimologiyalıq hám mádeniy aspektlerde izertlew principleriniń jetilistirilip, olardı til, millet hám mádeniyat birligi menen baylanıslı jańasha kózqarasta izertlewdi talap etpekte.

Bizge belgili, dúnyada xalıqlar, milletler, túrli tillerde sóylesiwshiler oǵada kóp. Solay eken olardıń hár biriniń ózlerine tán at qoyıw dástúrleri, ózgeshelikleri, kóz-qarasları bar. Hátteki ayırım adam atların esitiwden onıń qaysı milletke tiyisli ekenin shamalaw múmkinshiligi de bar boladı.

Qaraqalpaqsha adam atlarınıń da uzaq tariyxı, qoyılıw ózgeshelikleri hám dástúrleri bar. Ayırım adam atları belgili bir maqsetlerge tiykarlanıp qoyılǵan bolsa, basqaları tuwılǵan balanıń tuwılıw halatlarına, ornına, belgisi taǵı basqalarǵa arnalıp qoyıladı. Demek, adam atların izertlew arqalı xalıqtıń tariyxın, úrp-ádetlerin, dástúrlerin, sociallıq jaǵdayların hám t.b. sırların ashıwǵa boladı.

Qaraqalpaq tili antroponimleriniń ilimde arnawlı túrde úyreniliwine kelsek, olar basqa túrkiy tillerine salıstırǵanda kesh izertlengen. Qaraqalpaqsha adam atları haqqındaǵı eń dáslepki izertlewlər hám pikirler N.A.Baskakovtıń, O.Dospanovtıń, O.Sayımbetovtıń miynetlerinde ushırasadı.

Házirgi qaraqalpaq tilindegi menshikli adam atlarınıń etnografiyalıq ózgesheliklerin, olardıń xalıq turmısı, úrp-ádetleri, dástúrleri menen tıǵız baylanıslı táreplerin izertlew óz sheshimin kútip turǵan máselelerden esaplanadı. Soynay-aq, házirgi qaraqalpaq antroponimiyasına kelip kirip atırǵan birneshe adam atlarınıń grammatikalıq qurılısın, mánisin, kelip kiriw sebeplerin anıqlaw da tiykarǵı máselelerden esaplanadı. Máselen, *Jasmina*, *Aida*, *Aslina* – qızlar isimleri, *Armo*, *Ramil*, *Messi* – er-adam isimleri buǵan mısál bola aladı.

Kórkem shıǵarmalar, sonıń ishinde tariyxıy baǵdarda jazılǵan shıǵarmalarda qollanılgan antroponimler házirge shekem ele turaqlı túrde izertlenbey kiyatır. Olardı arnawlı úyreniw házirgi qaraqalpaq onomastikası ushın áhmiyetli esaplanadı.



Sebebi, tariyxıy kórkem shıǵarmalarda keltirilgen bir qatar menshikli adam atları jámiyetlik dúzim menen baylanıslı júzege kelgen bolsa, ayırımları xalıqtıń dúnya tanımı, kún kórisi, isenimi, diniy dástúrleri, siyasiy turmısı menen baylanıslı payda bolǵan. Álbette, olardı úyreniw nátiyjesinde xalıqtıń tariyxı, at qoyıw óneri, basqa xalıqlar menen mádeniy hám ekonomikalıq baylanısları málim boladı. Bul bolsa bir qatar lingvistikalıq máselelerdi sheshiwge múmkinshilik beredi.

Óytkeni menshikli atlar qaysı bir xalıqta bolmasın, sol xalıq tiliniń rawajlanıw zańlılıqlarına baǵınadı. Olar sol xalıqtıń sózlik quramınan tańlap alınadı hám adamǵa taǵıladı. Álbette, bunnan adam atları kúndelikli sóylew tilimizde qollanılap júrgen menen ǵana sheklenip qaladı eken degen juwmaq shıqpawı kerek. Atap ótetuǵın bolsaq, T.Qayıpbergenovtıń «Qaraqalpaq dástanı» tariyxıy shıǵarmaları tilinde qollanılgan birqatar adam atları qızıǵıwshılıq tuwdıradı. Shıǵarmada házirgi ádebiy tilge tán bolǵan kópshilik isimler ushırasatuǵın bosa da, olar hesh qanday ózgerissiz qollanılgan dew qıyın. Óytkeni, bir qatarları fonetikalıq yaki qısqarıp aytılıwı nátiyjesinde ózgeriske ushırap qollanılgan. Máselen, *Ǵayıp* (Qayıp), *Ájigeldi* (Hajıgeldi), *Mitriy* (Dmitriy), *Áshmuxamed* (Eshmuxammed), *Áshniyaz* (Eshniyaz), *Qoshmát* (Qosımbet) hám t.b. Al bir topar adam atları házir qollanılmawı menen ayırıqshalanadı. Olarǵa: *Xelwet* (Murat shayıqtıqtıń úlken ulı), *Aqbiyday*, *Maydabiyke*, *Dáwim* hám t.b.

Bunday adam atların arnawlı úyreniw házirgi qaraqalpaq onomastikası ushın áhmiyetli esaplanadı. Sebebi, tariyxıy kórkem shıǵarmalarda keltirilgen bir qatar menshikli adam atları jámiyetlik dúzim menen baylanıslı júzege kelgen bolsa, ayırımları xalıqtıń dúnya tanımı, kún kórisi, isenimi, diniy dástúrleri, siyasiy turmısı menen baylanıslı payda bolǵan.

Tuwılǵan balaǵa at qoyıw dástúri bul erte dáwirlerden baslanǵan. Antroponimler de dáwirler ótiwi, jámiyettiń rawajlanıwı menen qollanıwdan shıǵıp qalıp, ornına jańaları payda boladı. Antroponimler sistemasınıń rawajlanıwı hám bayıp barıwında tilimizdegi leksikalıq birlikler ayırıqsha xızmet etedi. Sonın menen birge, sırtqı tásirler sebebinen de tolısıp baradı. Bul xalıqtıń basqa xalıqlar menen baylanıslıan júzege keledi.

Qaysı bir xalıq yaki millet bolmasın óziniń pútkil ómiri, turmısı dawamında ózine jaqın xalıqlar menen mádeniy, ruwxıy qarım-qatnasta boladı. Bunday qatnaslar olardıń dástúrlerinde, kúndelikli turmısında, ásirese, sol xalıq sóyleytuǵın tildiń sózlik qorında ayırıqsha kózge túsedı. Bul jaǵdaydan antroponimler sisteması da shette qalmaydı. Sebebi, hár qanday tildiń antroponimler sistemasında túrli tillerge tán bolǵan adam atların ushıratıwǵa boladı. Bir qatar tilshi filologlardıń kórsetiwinshe, antroponimler sisteması bir tilden ekinshi tilge tez kóship ótetuǵın sózler toparın quraydı eken.

Demek, qaraqalpaq til biliminde ele qolǵa alınbaǵan, óz aldına izertlewdi talap etetuǵın másele tariyxıy shıǵarmalardaǵı qollanılgan antroponimiyalıq materiallardı toplaw hám úyreniw bolıp tabıladı. Bul bolsa qaraqalpaq antroponimleri tariyxın, rawajlanıw basqıshların, nızamlılıqların anıqlaw imkaniyatın payda boladı.



**Paydalanilgan ádebiyatlar dizimi**

1. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. I т. М., 1951.
2. Доспанов О., авторлар менен. Қарақалпақ исимлери. Н., 1994.
3. Сайымбетов О. Қарақалпақ тилиндеги меншикли адам атлары. Н., Билим, 2000.



## THE EFFECTIVENESS OF BRAND INDICATORS

**Aziza Aslanova Faxriddinovna**

PhD researcher in The Journalism and mass communication

University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [aziamir17@gmail.com](mailto:aziamir17@gmail.com)

**Annotation:** In this article, we explore a world filled with brand names. The brand name stands out as one of its most crucial verbal identifiers. We believe that a brand name is a key component of its reputation. It is impossible to assume that the brand name is not important. Today, we encounter a plethora of names, ranging from incorrect and dull to hard-to-pronounce and, at times, amusing. When a consumer interacts with a brand, the first thing to notice is its name and the quality of similar branded products.

**Keywords:** Brand, Consumer, Production, clear and broad, concise, expressive, sincere, cheerful.

**Introduction:** We live in a world filled with brand names that permeate our daily lives, firmly embedded in modern language. Consumers associate the brand name with product quality (e.g., Volkswagen) and other features, such as modern and aristocratic (Dior). According to Alex Frankl, an independent developer of corporate names and brands for major companies, the success and growth of a brand depend not only on production efficiency but also on the popularity of brand names. The brand name is a crucial verbal identifier, often referred to as a "hook" by J. Trout, helping the brand secure a place in the minds of potential consumers. Sergei Starov emphasizes that a unique and attractive name helps the brand evoke distinctive associations among customers, leaving a positive impression.

The role played by brand names is undeniable. For example, when setting the table for a New Year's party or birthday, even if there are quality drinks available, consumers often choose Coca Cola and Fanta because these brands have maintained their positive image over the years.

It's hard not to agree with Trout, who emphasizes that choosing a good name for a product is challenging. So, how is a brand name created? The naming process involves several stages.

In the first stage, comprehensive market research and analysis of goods marketed under the name are necessary. The next step is to establish specific requirements for the most important communicator in the brand name. Starov classifies these requirements as meaningful and formal. Thus, when assigning the same names, the problem may arise that the goods may differ significantly in purpose, rendering a single name inappropriate. In such cases, it is better for each product from a particular manufacturer to have a distinct name. Consider Danone, whose history started with a single yogurt bearing the same name as the manufacturer. Today, Danone is a leading producer of dairy products (Danone,



Activia, Danissimo), baby food, and even mineral water. The American food company Heinz is another example of using a single name for various products, including the world-famous ketchup.

The official requirement for a brand name includes compliance with linguistic (morphological, phonetic, lexical) and legal criteria (registration of the word as a company name, etc.). In luxury fashion, naming has its peculiarities. Luxury fashion researcher Uche Okonkvo argues that the name is one of the most important elements of the fashion luxury brand concept. To be liked and remembered by the consumer, G.L. suggests that a brand should be clear, short, expressive, sincere, and cheerful, with the form of the name corresponding to its content.

An essential step in creating a brand name is testing it among the target audience. This test is performed after checking problematic names and helps determine whether the name corresponds to the functional characteristics of the product, whether it is easy to remember and pronounce, and its modernity. The test also reveals the associations the new name will evoke in consumers. At the final stage, legal examination and protection of the new brand name are conducted.

In our opinion, a brand name is one of the key components of its reputation. It is impossible to assume that the brand name is not important. Today, a large number of pronounced and sometimes amusing names exist. When a consumer comes into contact with a brand, the first thing to notice is its name. One name may sound pleasant and easy, while another may sound harsh and unpleasant. Thus, the process of choosing an effective, successful brand name is indeed difficult and time-consuming but must be taken seriously and responsibly.

The second most important identifier, after the brand name, is the slogan—a short expression conveying the most important ideas specific to the brand's advertising campaign. The artistic value of the slogan, which lies in the use of technology in advertising, is of great importance. For example, a brand with a more memorable slogan and a brighter artistic solution gains a clear advantage over competing brands. A slogan with artistic significance is remembered as a good phrase and becomes part of everyday speech.

Now, let's delve into the main ways to give artistic value to a slogan and explore the most commonly used methods.

**Rhyme:** Slogans often contain artistic mediums such as rhyme. Pete Barry asserts that rhyming slogans are brighter and more enjoyable. For instance, the motto of Velona's sweetness, "I love Velona because she looks like fireworks!" fully aligns with the product's characteristics. The dessert's surface, like fireworks, features various colors, creating a cheerful mood and a desire to taste the "fireworks."

**Methodological Connection of Words:** The methodological connection of words plays a crucial role in creating a slogan. It is essential to convey the product's most important marketing value to the consumer using a minimal number of words. The stylistic affiliation of the words is significant, especially when the target audience is not homogeneous. For instance, the popular Snickers



chocolate bar motto, "Don't slow down Snickers," demonstrates the product's focus on individuals under the age of 25.

**Play on Words:** A slogan can sound bright and unusual by using various lexical methods to distinguish it from the slogans of competitive products, including synonyms, antonyms, homonyms, repetitive and double words, as well as phraseological units and figurative words. For example, in a Pinkie dessert ad, a biscuit is described as "soft, plump." The adjective "dombok" is typically used for people. Utilizing homonyms effectively in a brand name can create a vibrant impression. An example is one of Fanta's slogans: "New FANTASTIC bottle."

Pete Barry categorizes slogans into "five main types." The first type is "conclusion," which serves to generalize the main idea inherent in an advertising campaign. The next type, the "explanation" slogan, clarifies and explains the idea of the action. Without such a slogan, the essence of an advertising campaign may be incomprehensible to the consumer. The "offer" slogan directly emphasizes the product's superiority by repeating its main features, such as durability, speed, or unique taste.

Speaking of slogans as one of the most important verbal communications, it's crucial to mention the concept of 'storytelling' as a verbal brand identifier alongside slogans and other verbal means. Today, storytelling is a well-known concept for all vendors. Comprising the words "story" and "narration," storytelling has become a powerful tool in marketing and advertising. Pantene shampoo provides an exemplary case, offering necessary information about the brand throughout the story. The question-answer method also works effectively, as seen in the advertisement of the "AutoAn" application and website. Some advertisers leverage songs in advertising, as demonstrated by the successful use in the promotion of the drug 'Qupen' and the dessert 'Strobar.'

In conclusion, storytelling emerges as a potent verbal brand identifier. However, for storytelling to yield tangible results, stories must be interesting to the target audience, fostering a desire to buy the product and remain loyal to it. Various verbal brand identifiers can influence consumer creation, representing an audiovisual image with particular importance as a corporate identification element, an image component, a brand attribute, and a means of communication.

The primary task of a brand manager is to create brand capital and image by choosing a position and turning it into a means of communication. The first aspect is market-oriented, while the second is intra-company. The brand manager must achieve common goals through internal marketing tools, understanding the role of brand capital formation in the marketplace. The formation of a brand image depends on each employee of the company, making the internal role of the brand critical. The goal is to transform every employee into a carrier of the brand idea.

One key consideration is that setting worldly goals is essential for creating a renowned brand. For instance, even as a graduate of an economic university with small start-up capital, aspiring to be the best and persistently working towards that goal can lead to effective brand management, promotion, and eventual success in the market.



## REFERENCE

1. Frenkel A. Naming. How a word game becomes a business. - M: "Good Book", 2006.
2. Trout J., Rivkin S. New positioning. All about the world's # 1 business strategy. - SPb .: Peter, 2007.
3. Starov S.A. Verbal identifiers as external distinctive features of a brand. // Bulletin of St. Petersburg University. - Ser. 8. - Issue 4. - 2008.
4. Starov S.A. Brand Management: A Textbook. - SPb .: Higher School of Management, 2008.
5. Okonkwo W. Branding in luxury fashion: Mastery of creation and management. // U. Okonkwo; per. from English S. S. Gurinovich. - Minsk: Grevtsov Books, 2012.
6. Pavlova V.S. The communicative potential of the brand: Monograph. - Chita. ZabGU, 2012



## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Кочкарова Эльмира Рашидовна

Старший преподаватель  
Ташкентского института текстильной  
и легкой промышленности

**Аннотация:** В данной статье проводится глубокий анализ внедрения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современную лингводидактику. Рассматриваются ключевые направления, такие как использование интеллектуальных систем обучения (ITS), нейросетевых моделей для развития продуктивных навыков речи и автоматизированных систем оценки.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, лингводидактика, адаптивное обучение, нейронные сети, NLP, машинное обучение, персонализация, цифровая трансформация образования.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini zamonaviy lingvodidaktikaga joriy etish masalalari chuqur tahlil qilingan. Intellektual o'qitish tizimlari (ITS), nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun neyrotarmoq modellari va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari kabi asosiy yo'nalishlar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, lingvodidaktika, moslashuvchan ta'lim, neyron tarmoqlari, NLP, mashinali o'qitish, personallashtirish, ta'limning raqamli transformatsiyasi.

**Abstract:** This article provides an in-depth analysis of the implementation of Artificial Intelligence (AI) technologies in modern linguodidactics. It examines key areas such as the use of Intelligent Tutoring Systems (ITS), neural network models for developing productive speaking skills, and automated assessment systems.

**Keywords:** artificial intelligence, linguodidactics, adaptive learning, neural networks, NLP, machine learning, personalization, digital transformation of education.

Глобальная цифровая трансформация образования привела к возникновению новой парадигмы в обучении иностранным языкам. Традиционные методы, ориентированные на групповое обучение, постепенно уступают место высокотехнологичным решениям. Искусственный интеллект (Artificial Intelligence) сегодня выступает не просто как вспомогательный инструмент, а как полноценный агент образовательного процесса, способный адаптироваться к когнитивным особенностям каждого обучающегося.

Актуальность темы обусловлена стремительным развитием технологий обработки естественного языка (Natural Language Processing) и



необходимостью разработки методологической базы для их эффективного применения в академической среде.

Теоретические основы применения ИИ в образовании

Интеграция ИИ в обучение языкам опирается на несколько фундаментальных педагогических теорий:

Коннективизм: Рассматривает обучение как процесс формирования сети узлов информации, где ИИ помогает структурировать эти связи.

Социоконструктивизм: ИИ выступает в роли «более знающего другого» (по Л.С. Выготскому), обеспечивая зону ближайшего развития через интерактивное взаимодействие.

Ключевые педагогические функции технологий ИИ

Применение ИИ в лингводидактике позволяет реализовать ряд функций, которые ранее были труднодостижимы в рамках массового обучения:

### 2.1. Создание адаптивной образовательной среды

Интеллектуальные системы обучения используют алгоритмы для мониторинга деятельности учащегося в режиме реального времени. Если система фиксирует систематические ошибки в использовании времени Present Perfect, она автоматически перестраивает учебный контент, предлагая объяснения и упражнения именно на эту тему. Таким образом, реализуется принцип индивидуализации обучения.

### 2.2. Развитие навыков аудирования и говорения

So'nggi yillarda texnologiyaning rivojlanishi, ayniqsa raqamli texnologiyalar, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yangi yondashuvlar va yechimlarni to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaradigan va mavjud kambag'allik tadqiqot nazariyasiga qarshi turadigan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi. Texnologiyani rivojlantirish, ayniqsa raqamli texnologiyalar, kambag'allikni qisqartirishga yangi yondashuvlarni (va ko'rib chiqish usullarini) yaratadi, bu esa an'anaviy ravishda moliyaviy yordam va yengillashtirishga qaratilgan mavjud kambag'allik tadqiqot nazariyasiga qarshi turadi. Zamonaviy tadbirkorlikda ham raqamli texnologiyalar yangi imkoniyatlar yaratib, biznesni samarali boshqarish, xarajatlarni qisqartirish, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratishda, marketing va sotish jarayonlarini optimallashtirishda, ma'lum ma'moda kambag'allikni qisqartirishga o'z hissasini qo'shadi. Jumladan raqamli texnologiyalar yordamida tadbirkorlar o'z biznes modellari va xizmatlarini internet orqali kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Elektron tijorat (e-commerce) sohasida raqamli texnologiyalar yordamida, tadbirkorlar o'z mahsulot va xizmatlarini global bozorga taklif qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Online-do'konlar, mobil ilovalar, va raqamli marketing kanallari orqali bizneslar o'z mijozlariga yanada qulayroq xizmatlar ko'rsatishi mumkin. Misol sifatida, O'zbekiston bozorida o'z faoliyatini boshlagan raqamli platformalar, masalan, Tengda va Click kabi onlayn savdo maydonlari, tadbirkorlarga internet orqali savdo qilish imkoniyatini yaratdi. 2023-yilda O'zbekistonda internet savdosining hajmi 35% ga o'sdi, bu esa raqamli texnologiyalarning e-commerce sohasidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Demak. Mintaqada kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlikni rivojlantirishning innovatsion usullari jadallashtirish ijobiy samara berar ekan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. F. Alvaredo, L. Chancel, T. Piketty, E. Saez, G. Zucman/Global inequality dynamics: New findings from WID. *World.American Economic Review*, 107 (5) (2017), pp. 404-409.
2. V.S. Tchamyou, G. Erreygers, D. Cassimon/ Inequality, ICT and financial access in Africa/ *Technological Forecasting and Social Change*, 139 (2019), pp. 169-184.
3. G.J. Philipp, *et al.* Information technology and marketing: an important partnership for decades. *Ind. Manag. Data Syst.* (2020), pp. 123-157.
4. X. Neumeyer, S.C. Santos, M.H. Morris. Who is left out? Exploring social boundaries in entrepreneurial ecosystems. *The Journal of Technology Transfer*, 44 (2) (2019), pp. 462-484



## OZIQ-OVQAT SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYASI SHAKLLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH TAMOYILLARI

**Hamroyev Bobir Shoyimovich**

Axborot texnologiyalari va menejment  
universiteti Umumiy ishlar bo'yicha prorektori,  
mustaqil izlanuvchi.

E-mail: [b.hamroev@atmu.uz](mailto:b.hamroev@atmu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyasi shakllari va uni amalga oshirish tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, oziq-ovqat sanoati raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyasi shakllari va uni amalga oshirish tamoyillarini tadqiq qilish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются формы маркетинговой стратегии и принципы ее реализации в целях повышения конкурентоспособности пищевой промышленности. Также представлены выводы по результатам исследования форм маркетинговой стратегии и принципов ее реализации в целях повышения конкурентоспособности пищевой промышленности.

**Abstract.** This article discusses the forms of marketing strategy and the principles of its implementation in increasing the competitiveness of the food industry. It also presents conclusions on the study of the forms of marketing strategy and the principles of its implementation in increasing the competitiveness of the food industry.

**Kalit soʻzlar.** Oziq-ovqat, oziq-ovqat sanoati, raqobatbardoshlik, marketing, marketing strategiyasi, shakl, tamoyil.

**Ключевые слова.** Продукты питания, пищевая промышленность, конкурентоспособность, маркетинг, маркетинговая стратегия, форма, принцип.

**Key words.** Food, food industry, competitiveness, marketing, marketing strategy, form, principle.

Oziq-ovqat sanoati har qanday davlat iqtisodiyotining strategik tarmogʻi boʻlib hisoblanadi. Aholini sifatli va xavfsiz mahsulotlar bilan taʼminlash, eksport salohiyatini oshirish hamda ichki bozorda barqaror narx siyosatini yuritish ushbu sohaning asosiy vazifasi boʻlib namoyon boʻladi. Chunki, bugungi globallashuv sharoitida raqobat keskinlashib bormoqda. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar ichki bozorda va xorijiy kompaniyalar bilan ham raqobatlashishga majbur boʻladilar. Shu bois, marketing strategiyasini toʻgʻri shakllantirish va uni samarali amalga oshirish oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Bu boradagi tadqiqotlarda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida



yashil marketing konsepsiyalarini qo'llashning ahamiyati, yashil marketing xususiyatlari, yashil marketing konsepsiyasining asosiy mazmuni, tarkibiy qismlari, yo'nalishlari, yashil marketing konsepsiyasi asosida qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari brendining xususiyatlari yoritilgan [1]. Yana bir tadqiqotlarda esa oziq-ovqat korxonalari mahsulotlarining raqobatbardoshligini boshqarish jarayonida mahsulot sifatining o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Ya'ni, unda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun sifat menejmenti tizimlaridan foydalanish, xalqaro standartlarga moslik, ekologik xavfsizlik va innovatsion texnologiyalarning roli tahlil qilingan [2].

Marketing strategiyasi korxonada va uning raqobatbardoshligi uchun zarur bo'ladi. Chunki, marketing strategiyasi korxonaning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun bozorni o'rganish va iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlashga qaratiladi. Marketing strategiyasi firmaning raqobat vaziyatini egallash va uni ushlab turishdagi ahamiyatini biznesning tez o'zgaruvchanligi hamda ko'p qirradi, murakkabligini hisobga olib resurslardan samarali foydalanish yo'lini ko'rsatuvchi bozor talabini qondiruvchi uch guruhni korporativ darajada ko'rsatish mumkin [3].

Oziq-ovqat sanoatida marketing strategiyasi mahsulot tez buziluvchan bo'lishi mumkinligi, sifat va xavfsizlik talablarining yuqoriligi, mavsumiylikning kuchli ta'sir qilishi va narx sezgirligining yuqoriligi kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu borada raqobatbardoshlik korxonaning o'z mahsulotini bozorda muvaffaqiyatli sotish, raqobatchilardan ustun turish va barqaror foyda olish qobiliyatini aks ettiradi. Unga asosan, oziq-ovqat sanoatida raqobatbardoshlik mahsulot sifati, narx darajasi, brend obro'i, qadoqlash va dizayn, yetkazib berish tezligi va marketing kommunikatsiyasi kabi omillar bilan belgilanadi.

Shuningdek, oziq-ovqat sanoatida marketing strategiyasi quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- differensiallash strategiyasi. Ushbu strategiyaning yo'nalishi mahsulotni raqobatchilarnikidan farqlashga qaratilgan. Asosiy yo'nalishlari qatoriga tabiiy va ekologik mahsulot ishlab chiqarish, premium segment uchun maxsus mahsulotlar va qadoqlash va dizaynda innovatsiyalar kabilar kiradi.

- narx bo'yicha yetakchilik strategiyasi. Bu strategiyaga ko'ra, korxonada past narx orqali bozor ulushini kengaytiradi. Shakllanish shartlari tarkibiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, ommaviy ishlab chiqarish va logistikani optimallashtirish kabilar kiradi. Ushbu strategiya aholi daromadi past bo'lgan hududlarda samarali bo'lib hisoblanadi.

- segmentatsiya strategiyasi. Bu strategiya bozorni alohida guruhlariga ajratish orqali aniq iste'molchi qatlamiga mo'ljallangan mahsulot taklif etiladi. Bu borada segmentatsiya mezonlari tarkibiga yosh, daromad darajasi, hudud va turmush tarzi kabilar kiradi. Masalan, bolalar uchun maxsus sut mahsulotlari yoki sportchilar uchun oqsilli mahsulotlar ishlab chiqarish shularga xos bo'ladi.

- innovatsion marketing strategiyasi. Uning yo'nalishi yangi mahsulot yaratish yoki mavjud mahsulotni takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan. Yo'nalishlari tarkibiga organik mahsulotlar, shakarsiz yoki parhez bop mahsulotlar va qulay "ready-to-eat" mahsulotlar kabilar kiradi.



- raqamli marketing strategiyasi. Bu internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali mahsulotni targ'ib qilishga qaratiladi. Asosiy vositalari qatoriga ijtimoiy tarmoqlar (Instagram va Telegram), influencer marketing, onlayn savdo platformalari va maqsadli reklama kabilar xos bo'ladi. Ushbu strategiya yosh iste'molchilar orasida samarali bo'lib hisoblanadi.

Ulardan tashqari, marketing strategiyasini amalga oshirish tamoyillari quyidagicha tasiflanadi:

- bozorni chuqur o'rganish tamoyili. Marketing strategiyasi real statistik ma'lumotlar va tahlillarga asoslanishi lozim. Uning tarkibiga talab va taklifni o'rganish, raqobatchilar tahlili va narx monitoringi kabilar xos bo'ladi.

- iste'molchiga yo'naltirilganlik tamoyili. Unda mahsulot ishlab chiqarishda asosiy e'tibor mijoz ehtiyojiga qaratiladi. Ularga sifatni kafolatlash, xavfsizlik standartlariga rioya qilish va qulay qadoqlash kabilar xos bo'ladi.

- komplekslik tamoyili. Bu borada marketingning 4P modeli qo'llanilib, uning tarkibiga product (mahsulot), price (narx), place (taqsimot) va promotion (targ'ibot) kabi unsurlar xos bo'ladi. Mazkur unsurlar uyg'unligi raqobat ustunligini yaratadi.

- innovatsionlik tamoyili. Unga asosan, korxonada doimiy ravishda yangilik kiritishi zarur. Ya'ni, texnologik modernizatsiya, yangi retsepturalar va ekologik qadoqlash shularga xos bo'ladi.

- barqarorlik va sifat tamoyili. Oziq-ovqat sanoatida barqaror sifat eng muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ular tarkibiga ISO standartlari, HACCP tizimi va sertifikatlash kabilar xos bo'ladi.

Shular bilan birgalikda, oziq-ovqat sanoatida marketing strategiyasining amaliy mexanizmlari quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

- brending va imij yaratish. Kuchli brend ishonch uyg'otadi, doimiy mijozlar sonini oshiradi va narxni barqaror saqlash imkonini beradi.

- logistika va distribyutsiya tizimi. Mahsulotni tez va sifatli yetkazib berish sovetkichli transport, ombor tizimi va savdo tarmoqlari bilan hamkorlikka asoslanadi.

- eksport marketingi. Xalqaro bozorda muvaffaqiyat uchun xalqaro sertifikatlar, qadoqlashni moslashtirish hamda valyuta va bojxona siyosatini hisobga olish lozim.

Xulosa shuki, oziq-ovqat sanoatida marketing strategiyasi korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy vositadir. Differensiallash, narx yetakchiligi, segmentatsiya, innovatsion va raqamli marketing strategiyalari raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Marketing strategiyasini amalga oshirishda bozorni chuqur o'rganish, iste'molchiga yo'naltirilganlik, komplekslik, innovatsionlik va barqaror sifat tamoyillariga amal qilish zarur. Shunday qilib, to'g'ri shakllantirilgan marketing siyosati oziq-ovqat sanoatining ichki va tashqi bozordagi mavqeini mustahkamlaydi hamda eksport salohiyatini oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Po'latova Sh.A. Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida yashil marketing konsepsiyasidan foydalanishning ahamiyati va o'rni. // Journal of marketing, business and management, Volume2, Issue9 (January), 2024. - 31 b.



2. Ikromov A. (2025). Oziq-ovqat korxonolari mahsulotlari raqobatbardoshligini boshqarishning mahsulot sifatiga ta'siri. // Наука и инновация, 3(5). - 115-118 б. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/7277106>

3. Salimov S.A. Marketing boshqarish. Darslik. - T.: Aloqachi, 2010. - 158 б.



## СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАРНИНГ ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИ РАҒБАТЛАНТИРИШ

*Исаханов Муслимжон Маърифжон ўғли*

*Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалигида стратегик ривожланиш  
ва тадқиқотлар халқаро маркази тадқиқотчиси  
orcid.org 0009-0004-4735-4807  
isaxonovmuslimjon@gmail.com*

**Аннотация.** Мазкур тадқиқотда суғориладиган ерлар тупроқ унумдорлигининг ҳозирги ҳолати, унинг иқтисодий самарадорликка таъсири ҳамда деградация омиллари хусусида сўз юритилган. Ер унумдорлигини оширишни рағбатлантириш орқали ҳосилдорлик ва экспорт тушумини кўпайтириш имкониятлари иқтисодий жиҳатдан асослаб берилган.

**Калит сўзлар:** суғориладиган ерлар, тупроқ унумдорлиги, иқтисодий рағбатлантириш, мелиорация, аграр сиёсат, ер деградацияси, ҳосилдорлик, экспорт самарадорлиги

Аграр иқтисодиётда суғориладиган ер ресурслари ишлаб чиқариш салоҳиятининг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Мамлакатимизда жами қишлоқ хўжалиги ерлари 20 млн гектардан ортиқ бўлиб, шундан 4,3 млн гектари суғориладиган ерлар улушига тўғри келади [1]. Мазкур ерлар интенсив ишлаб чиқариш тизими асосида пахта, ғалла, сабзавот ва боғдорчилик маҳсулотларининг асосий қисмини таъминлайди. Шу нуқтаи назардан, суғориладиган ерлар самарадорлиги мамлакат ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ҳажми, экспорт тушумлари ва озиқ-овқат хавфсизлиги кўрсаткичларига бевосита таъсир кўрсатади. Бироқ ер ресурсларидан экстенсив фойдаланиш, агротехник тадбирларнинг етарли даражада бажарилмаслиги ҳамда мелиоратив ҳолатнинг ёмонлашуви тупроқ унумдорлигининг тизимли равишда пасайишига олиб келмоқда.

Халқаро тажриба таҳлили шуни кўрсатадики, суғориладиган ерлар умумий экиладиган майдонларнинг тахминан 20 фоизини ташкил этган ҳолда, жаҳон озиқ-овқат маҳсулотларининг қарийб 40 фоизини ишлаб чиқаради [2]. Бу ҳолат суғориладиган ерларда қўлланиладиган интенсив агротехнологиялар ва ресурслардан юқори даражада фойдаланиш самарадорлигини ифодалайди. Ўзбекистон шароитида эса суғориладиган ерларнинг тахминан 49 фоизи турли даражада шўрланганлиги қайд этилган [3]. Шўрланиш жараёни тупроқдаги осмотик босимнинг ортишига, ўсимлик илдиз тизими фаолиятининг чекланишига ва озиқ элементларининг ўзлаштирилиш даражасининг пасайишига сабаб бўлади. Натижада ҳосилдорлик 20-30 фоизгача қисқаради, бу эса хўжаликлар молиявий барқарорлигига салбий таъсир кўрсатади.

Тупроқ унумдорлигининг асосий индикаторларидан бири бўлган гумус миқдори республика бўйича ўртача 1–1,2 фоизни ташкил этиб, илмий



жихатдан тавсия этиладиган 2–3 фоизлик меъёрдан анча паст экани кузатилади [4]. Гумуснинг камайиши тупроқ структурасининг бузилишига, сув ушлаб туриш қобилиятининг пасайишига ва микроорганизмлар фаоллигининг чекланишига олиб келади. Бу эса минерал ўғитлар самарадорлигини камайтиради ва кўшимча харажатларни талаб этади. Демак, тупроқ унумдорлигини тиклаш фақат агротехник эмас, балки иқтисодий самарадорлик нуқтаи назаридан ҳам стратегик аҳамиятга эга.

Иқтисодий ҳисоб-китоблар шуни кўрсатадики, тупроқ ҳолатини яхшилаш орқали ҳосилдорликнинг ўсиши юқори молиявий натижа беради. Агар агромелиоратив тадбирлар натижасида ҳосилдорлик камида 10 фоизга ортиши, ер унумдорлигини тиклашга йўналтирилган инвестицияларнинг юқори қайтаримли эканини илмий-амалий жиҳатдан асослайди.

Глобал миқёсда ер деградацияси иқтисодиётга катта йўқотишлар келтирмоқда. Жаҳон банки маълумотларига кўра, ер деградацияси натижасида жаҳон иқтисодиёти йилига 400 млрд АҚШ долларигача зарар кўради [5]. Бу ҳолат ер ресурсларини муҳофаза қилиш ва унумдорлигини тиклаш бўйича давлат сиёсатини кучайтириш зарурлигини кўрсатади. Ўзбекистон шароитида ҳам ер ресурсларини иқтисодий механизмлар орқали рағбатлантириш барқарор аграр ривожланишнинг муҳим омили ҳисобланади.

Давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлаш механизмини такомиллаштириш тупроқ унумдорлигини оширишда муҳим аҳамият касб этади. Агар ушбу маблағларнинг маълум қисми мелиорация, органик ўғитлар қўллаш ва инновацион суғориш технологияларини жорий этишга мақсадли равишда йўналтирилса, узоқ муддатли иқтисодий самарадорлик таъминланади. Субсидиялар инвестиция харажатларини қисқартиради ва фермерларнинг рағбатини кучайтиради.

Солиқ сиёсати ҳам рағбатлантирувчи омил сифатида хизмат қилиши мумкин. Ер унумдорлигини ошириш бўйича белгиланган агроэкологик стандартларга риоя қилган хўжаликларга ер солиғи бўйича имтиёзлар бериш, аксинча тупроқ деградациясига йўл қўйган субъектларга нисбатан оширилган ставкалар қўллаш орқали иқтисодий масъулиятни кучайтириш мумкин. Бу усул ресурслардан оқилона фойдаланиш ва узоқ муддатли барқарорликни таъминлашга хизмат қилади.

Шунингдек, экспортбоп органик маҳсулот ишлаб чиқаришни рағбатлантириш тупроқ унумдорлигини сақлашга хизмат қилади. 2023 йилда Ўзбекистоннинг мева-сабзавот экспорти 2 млрд АҚШ долларидан ошган [6]. Органик маҳсулотлар халқаро бозорда 20–30 фоиз юқори нархда сотилиши инобатга олинганда, тупроқни муҳофаза қилиш иқтисодий жиҳатдан ҳам манфаатли экани намоён бўлади. Демак, бозор механизмларини қўллаш орқали ер унумдорлигини ошириш рағбатини кучайтириш мумкин.

Суғориладиган ерлар тупроқ унумдорлигини ошириш масаласи аграр соҳанинг барқарор ривожланиши, озиқ-овқат хавфсизлиги ва экспорт салоҳиятини таъминлашда стратегик аҳамият касб этади. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, ер ресурсларидан самарали фойдаланиш фақат



агротехник тадбирлар билан чекланиб қолмасдан, иқтисодий рағбатлантириш механизмлари билан уйғунлаштирилган ҳолда амалга оширилиши зарур. Давлат қўллаб-қувватлаши, солиқ ва молиявий инструментлар, шунингдек бозор механизмлари бир-бирини тўлдирувчи тизим сифатида ишлаганда тупроқ унумдорлигини тиклаш ва сақлашда юқори самарадорликка эришиш мумкин. Шу билан бирга, ердан фойдаланувчиларнинг иқтисодий масъулиятини ошириш ва узоқ муддатли манфаатдорлигини таъминлаш муҳим аҳамиятга эга.

Истиқболда эътиборни агроэкологик ёндашувни кучайтириш, рақамли ер мониторинги тизимини жорий этиш, тупроқ сифатини баҳолашнинг ягона индикаторларини ишлаб чиқиш ва ер унумдорлигини баҳолашни молиявий механизмлар билан боғлашга қаратиш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, илмий тадқиқотлар натижаларини амалиётга жорий этиш, фермерларнинг билим ва кўникмаларини ошириш ҳамда органик ва ресурс тежамкор технологияларни кенгайтириш келгусида устувор вазифалардан бири бўлиши лозим. Комплекс институционал ва иқтисодий ислохотлар орқали ер ресурсларидан барқарор фойдаланиш тизимини шакллантириш аграр соҳанинг рақобатбардошлигини таъминлайди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo‘mitasi. (2021). *Yer fondi va tuproq sifati monitoringi natijalari*. Toshkent.
2. Food and Agriculture Organization. (2023). *FAOSTAT Statistical Database*. Rome: FAO. Available at: <https://www.fao.org/faostat/>
3. Food and Agriculture Organization. (2022). *The State of the World’s Land and Water Resources for Food and Agriculture (SOLAW 2022)*. Rome: FAO.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. (2022). *Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati to‘g‘risida hisobot*. Toshkent.
5. Jahon banki. (2022). *Land Degradation and Economic Growth: Global Assessment Report*. Washington, DC: World Bank.
6. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. (2024). *Eksport ko‘rsatkichlari bo‘yicha rasmiy statistika ma‘lumotlari*. Toshkent.



**MUVAFFAQIYATSIZLIKDAN QOCHISH MOTIVI O‘SMIR  
BOKSCHILARNING FAOLIYATIDA MUHIM PSIXOLOGIK ASPEKT**

**Raximov Abdulatif Abdimuradovich**

Qarshi davlat universiteti

“Psixologiya” kafedrası dotsenti vazifasini bajaruvchisi,  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Email: [abdulatifraximov@gmail.com](mailto:abdulatifraximov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi o‘smir bokschilarning faoliyatida muhim psixologik aspekt sifatida tadqiq etilgan. Shaxsning muvaffaqiyatga erishish jarayoniga obyektiv va subyektiv mazmun nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek maqsadlarga erishish yo‘lidagi imkoniyatlar va cheklovlarni baholab bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘smir bokschi, o‘ziga ishonch, psixologik aspekt, obyektiv va subyektiv mazmun, imkoniyatlar va cheklovlar, kontaktli ijtimoiy guruhlar, psixologik tavsiyalar.

**Kirish.** Jahon sportida professional boks turi bo‘yicha raqobatning kuchayib borayotganligi, xalqaro boks musobaqalaridagi natijalarning kun sayin o‘zgarishi va talablarning ortib borayotganligi yosh bokschi sportchilarni psixologik jihatdan tayorlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. O‘smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarining shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo‘lib, uni ilmiy-amaliy o‘rganish, tadqiqotni tashkil etishning o‘ziga xos dasturiy ta‘minotini talab etadi. Xalqaro boks Assotsiatsiyasining 2022-yil yakunlariga ko‘ra, dunyodagi eng mashhur bokschi-sportchilar reytingi, davlatlar miqyosida e‘lon qilindi. Unga ko‘ra Xalqaro boks assotsiatsiyasining 2022-yilgi yil yakunlari bo‘yicha bergan ma‘lumotida Jahon reytingida birinchi o‘rinni Qozog‘iston bokschilari, ikkinchi o‘rinni O‘zbekiston Respublikasi bokschilari, oxirgi o‘rinni esa, Islandiyalik bokschilar egallashgan<sup>6</sup>. Bu ma‘lumotlar o‘z navbatida o‘smirlik davridan bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllanishining psixologik omillarini aniqlash, ularning boks sporti bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi, g‘alabaga erishishida motivatsiyani ahamiyatligini joriy etishga yo‘naltirilgan masalalarni ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Shaxsning muvaffaqiyatga erishish jarayoniga obyektiv va subyektiv mazmun nuqtayi nazaridan qaraganda, u nafaqat ko‘p jihatli, ko‘p rejali va murakkab, balki yetarli darajada munozaralidir. Y.S.Romanova o‘z tadqiqotida shaxs jarayonining ikki tomonlama qarama-qarshiligiga ishora qiladi, “bu ijtimoiy darajada jamiyatning professional kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari va insonlarning haqiqiy kasbiy hamda hayotiy rejalari o‘rtasida qarama-qarshilik,

<sup>6</sup> [http://setopen.sportdata.org/ibaranking/ranking\\_main\\_country.php](http://setopen.sportdata.org/ibaranking/ranking_main_country.php)



individual-psixologik darajada foydali bo‘lish zarurati o‘rtasidagi qarama-qarshilik sifatida jamiyat va o‘zini o‘zi namoyon qilish zarurati bo‘lib xizmat qiladi” [2. 123].

Ensiklopedik talqinda [3. 9] shakl har qanday mazmunning tashqi tuzilishini, ko‘rinishini, ifodasini anglatadi. Falsafiy talqin “mazmun” va “shakl” toifalarini taqqoslash bilan bog‘liq. Birinchisi, butunni, qismlarni, elementlarni o‘ziga xos narsa bilan to‘ldirish, ikkinchisi - mazmunning ichki tashkil etilishi. Har qanday rivojlanish jarayonida mazmun va shakl o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud bo‘lib, bu ma‘lum bir bosqichda eski shakldan “voz kechish” ga va ishlab chiqilgan mazmunga mos keladigan yangisining paydo bo‘lishiga olib keladi. Shakl olish – yuzaga kelish, yetuklikni oshirish, shakllanish, tashqi aniqlanadigan aniqlikka ega bo‘lish demakdir. Shakllanish - har qanday ichki o‘zgarishlar, rivojlanish, o‘sishning tabiiy, zarur, obyektiv ajralmas hodisasidir [4. 246].

**Natijalar va ularning tahlili.** Muvaffaqiyatga erishish motivlari ilmiy va ilmiy-amaliy muammo sifatida XIX–XX asrlar oxirida faol muhokama qilingan. XX asr davomida tezlashgan ijtimoiy obyektlar (odamlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, muassasalar), psixologiyaning fan sohalari, fanlararo metodologiya va metodlar evolyutsiyasi muvaffaqiyatga erishish motivlari muammolarini hal qilish texnologiyasining holatini muntazam ravishda tekshirishni va uni ilmiy va ilmiy-amaliy jihatdan aks ettirishni talab qiladi [5. 46]. Ilmiy va ilmiy-amaliy muammolarga yondashuvni belgilaydigan asosiy omillarga zamonaviy jamiyatning holatini tushunish, dolzarb ijtimoiy muammolar haqida fikr yuritish, fanning yakuniy maqsadlarini ta’kidlash, ushbu maqsadlarga erishish yo‘lidagi imkoniyatlar va cheklovlarni baholash kiradi. Jamiyatning eng muhim omillari qatoriga quyidagilar ortib borayotganini aytish mumkin [6. 12]:

- zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining dinamikligi;
- kasbiy faoliyat subyektiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishi (uni tayyorlash uchun, o‘zgaruvchan jamiyatda faoliyatni tezda qayta qurish qobiliyati uchun);
- mutaxassisning ijodiy salohiyatiga qo‘yiladigan talablar;
- kontaktli ijtimoiy guruhlarda ishlash qobiliyatiga qo‘yiladigan talablar, shaxsiy, kasbiy ijtimoiy rivojlanish talablari;
- kasbiy, ijtimoiy va geografik harakatchanlik talablari.

Faoliyat subyektlarining sifatlarini shakllantirish va baholashda yangi muammolarni hal qilishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga muhit va maqsadlarni o‘zgartirish orqali erishish mumkin: kasbiy ta’lim; insonning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy fazilatlarini kompleks rivojlantirish dasturlari; rivojlanayotgan texnologiyalarni ishlab chiqish; subyektga qo‘yiladigan talablarni oldindan prognoz qilish; insoniy fazilatlarining dolzarbligiga ko‘ra emas, balki imkoni mavjud va erishish mumkin bo‘lgan rivojlanish darajasiga e’tibor qaratish; insonni butun mehnat faoliyati davomida kasbiy qo‘llab-quvvatlash shakllari, uslublarining uzluksizligini shakllantirish to‘g‘risida; tashkilot, mintaqa, davlat bo‘ylab kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, baholash, joylashtirish va rotatsiyasini strategik rejalashtirish sifatida inson resurslarini boshqarish muammolarini hal qilishda. Jamiyatdagi tezlashib borayotgan o‘zgarishlar ana shu o‘zgarishlarni aks ettiruvchi ilmiy tushunchalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.



О‘smir bokschi sportchilar o‘quv mashg‘uloti faoliyatida muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanishining psixologik omillari bilan motivatsion xususiyatlari o‘zaro bog‘liqlikni aks ettirib, muvaffaqiyatga erishish motivi, ichki motiv hamda bilish motivi kuchi kabi xususiyatlar quyilashgan sari, o‘smir bokschi sportchilarda muvaffaqiyatga erishish motivlari salbiy jihatdan rivojlanishini anglatar ekan.

Muvaffaqiyatga erishish motivlari – bu shaxsning kasbiy yaroqliligini ehtimolli baholash, ma‘lum bir mutaxassislikni o‘zlashtirish, zarur mahorat darajasiga erishish va kasbiy vazifalarni samarali bajarish imkoniyatlarini o‘rganish tartibi. Muvaffaqiyatga erishish motivlarida 4 ta komponent mavjud: tibbiy, fiziologik, pedagogik va psixologik. Muvaffaqiyatga erishish motivlari o‘z mohiyati va mezonlariga ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy tadbir bo‘lsa, metodlari bo‘yicha esa – tibbiy-biologik va psixologikdir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, muvaffaqiyatga erishish motivlari taqsimlangan vazifalarni bajarishda boshqalardan faolroq, boshqalarni bajarishga undovchi yoki ularni yetaklovchi, guruh harakatlarini muvofiqlashtirib boruvchi shaxsdir. Fanda muvaffaqiyatga erishish motivlarini tushuntiruvchi xislatlar nazariyasi, kognitiv nazariya, chegaraviy rollar yondoshuvi, tizimli yondoshuv va sintetik yondoshuv kabilarning mohiyatini yoritish o‘ta muhim hisoblanadi. Quyida ushbu nazariya va yondoshuvlar borasida qisqacha ma‘lumotlar berishga harakat qilamiz. Xislatlar nazariyasiga muvofiq, lider shaxs boshqalardan ustun qobiliyatli, uzoqni ko‘ra oluvchi, muloqotchan, murakkab sharoitlarga tez moslasha oladigan, har qanday yangiliklarni optimistik qabul qiluvchi shaxsdir.

**Xulosa.** Muvaffaqiyatga erishish motivlari aqliy harakatlarning asosi hisoblanib, u dinamik rivojlanish bosqichiga egadir. Iroda va muvaffaqiyatga erishish motivlari muammosiga qiziqish antik davr allomalari asarlarida ham aks etgan bo‘lib, unda muvaffaqiyatga erishish motivlari aql-idrokning bir qismi sifatida ta‘riflangan. Qadimgi davr faylasuflaridan biri Platonning fikricha, iroda bu aqlning sintezi, u orqali biror narsaning bahosi belgilanadi shuningdek, muvaffaqiyatga erishish motivlari bu - shaxsning intilishlarida aks etuvchi xulq –atvor shakllaridir. Bugungi kunda ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, har qanday tadqiqot jarayonida tanlab olingan turli xil yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish muammoni o‘rganishning asosiy metodologik jihatlarini tashkil etishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan olib qaralganda biz tadqiq etayotgan muammo motiv va motivatsiyaga doir konsepsiyalar hamda yondashuvlarning asosiy mohiyatidan kelib chiqadi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati

1. [http://setopen.sportdata.org/ibaranking/ranking\\_main\\_country.php](http://setopen.sportdata.org/ibaranking/ranking_main_country.php)
2. Лубышева Л.И., Магин В.А. Инновационные технологии в профессиональной подготовке спортивного педагога.-М.: Теория и практика физической культуры, 2005–123 с.
3. Смирнова Е.О. К проблеме воли и произвольности в культурно-исторической психологии // Культурно-историческая психология, 2015. – Т. 11. № 3. С.9 – 15.



4. Кови Стивен Р. Семь навыков высокоэффективных людей. Мощные инструменты развития личности: пер. с англ./ С. Р. Кови. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. – С.246.

5. Крылов, А.А. Некоторые проблемы психологии спорта в современном мире / А.А. Крылов // Вестник Балтийской Педагогической Академии. -1998.- Вып. 14.-С. 46-49.

6. Кузнецов В. С., Колодницкий Г. А. Теория и история физической культуры. М.: КноРус, 2020. – С.12.



## МАКТАБГАЧА КАТТА YOSHDAGI BOLALARNI TA'LIMIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

**G'aybullayeva Shaxnoza Asadovna,**  
Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika  
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ta'limiy faoliyatini samarali tashkil etishning pedagogik, psixologik va metodik asoslari yoritiladi. Ta'lim jarayonini rejalashtirish, rivojlantiruvchi muhit yaratish, innovatsion metodlardan foydalanish hamda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, rivojlantiruvchi muhit, pedagogik texnologiya, individual yondashuv, ta'lim faoliyati.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha katta yoshdagi bolalar (5–7 yosh) shaxsiy rivojlanish, nutq, tafakkur, ijtimoiylashuv va o'qishga tayyorgarlik jarayonining eng faol davrida bo'ladi. Shu sababli ularning ta'limiy faoliyatini ilmiy asoslangan holda tashkil etish nafaqat keyingi bosqichdagi muvaffaqiyat, balki shaxsning umumiy intellektual va ma'naviy rivoji uchun ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogika maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda reproduktiv o'qitishdan ko'ra rivojlantiruvchi ta'limni ustuvor deb biladi. Bu esa pedagogdan ta'lim jarayonini rejalashtirishda metodik yondashuv, innovatsion texnologiyalar va bolalar psixologiyasini chuqur bilishni talab qiladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik-pedagogik xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Katta maktabgacha yosh davrida bolalarda:

- mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi;
- nutq faol rivojlanadi;
- mustaqil qaror qabul qilishga intilish ortadi;
- ijtimoiy rollarni anglash kuchayadi.

Bu davrda bolaning qiziqishi faol bilish jarayoniga yo'naltirilgan bo'lib, u savol berish, taqqoslash, kuzatish orqali atrof-muhitni o'rganadi. Shu bois ta'lim jarayonida faqat ma'lumot berish emas, balki bilishga undovchi vaziyatlar yaratish muhim.

Maktabgacha ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda quyidagi tamoyillar asosiy hisoblanadi:

**Tizimlilik** – mashg'ulotlar izchil va bosqichma-bosqich bo'lishi kerak;

**Faollik** – bola ta'lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol subyekti bo'lishi lozim;

**Ko'rgazmalilik** – vizual vositalar orqali bilim mustahkamlanadi;

**Individual yondashuv** – har bir bolaning rivojlanish darajasi hisobga olinadi;



**Integratsiya** – fanlararo bog‘liqlik asosida o‘qitish.

Mazkur tamoyillarni qo‘llash bolalarda bilimni mustaqil egallash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda quyidagi ta‘limiy faoliyat shakllari qo‘llaniladi:

1. **Didaktik o‘yinlar** – bilimni o‘yin orqali o‘zlashtirish.
2. **Ijodiy mashg‘ulotlar** – rasm, qurish, loyihalash faoliyati.
3. **Kuzatuv va tajribalar** – tabiat hodisalarini o‘rganish.
4. **Suhbat va muhokama** – nutq va tafakkurni rivojlantirish.
5. **Rol o‘yinlari** – ijtimoiy tajribani shakllantirish.

Bu shakllar bolaning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Ta‘lim samaradorligi ko‘p jihatdan muhitga bog‘liq. Rivojlantiruvchi muhit quyidagi talablarga javob berishi kerak: xavfsiz va gigiyenik bo‘lishi; bolalarning mustaqil faoliyatiga imkon yaratishi; ko‘rgazmali materiallarga boy bo‘lishi; texnologik vositalar bilan jihozlangan bo‘lishi.

Rivojlantiruvchi muhit bolalarda ijodkorlik, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantiradi. Maktabgacha ta‘lim jarayonida pedagog: tashkilotchi; yo‘naltiruvchi; kuzatuvchi; motivator sifatida faoliyat yuritadi.

Pedagogning professional mahorati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: bolalar qiziqishini aniqlash; mos metod tanlash; psixologik muhit yaratish; individual yordam ko‘rsatish. Yuqori malakali pedagog ta‘lim jarayonini bolaga moslashtira oladi. Zamonaviy maktabgacha ta‘limda innovatsion yondashuvlar keng qo‘llanmoqda: interaktiv metodlar; STEAM elementlari; multimedia vositalari; raqamli o‘yin platformalari. Bu texnologiyalar bolalarning:

- diqqatini jalb qiladi;
- bilimni tez o‘zlashtirishga yordam beradi;
- mustaqil izlanishga undaydi.

Natijada ta‘lim jarayoni samaradorligi oshadi.

Bolani rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik muhim omil hisoblanadi. Pedagog: ota-onalarni metodik tavsiyalar bilan ta‘minlashi; uy sharoitida mashg‘ulotlarni tashkil etishni o‘rgatishi; rivojlanish dinamikasi haqida ma‘lumot berib borishi kerak. Oila va ta‘lim muassasasi hamkorligi bolada barqaror rivojlanish muhitini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalar ta‘limiy faoliyatini samarali tashkil etish — kompleks pedagogik jarayon bo‘lib, u ilmiy asoslangan metodlar, rivojlantiruvchi muhit, individual yondashuv va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirishni talab etadi. To‘g‘ri tashkil etilgan ta‘lim jarayoni bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, ijtimoiy moslashuv va o‘qishga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bois maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi normativ hujjatlar to‘plami. — T., 2020.
2. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. — М.: Смысл, 2005.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология. — М.: Логос, 2004.
4. Ik qadam davlat o‘quv dasturi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi nashri, 2018.



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР  
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

**SANOAT KORXONALARDA ELEKTR ENERGIYASIDAN  
FOYDALANISH SAMARADORLIGI KO‘RSATKICHLARI**

***Nurov Homid Ibrohimovich***

*Buxoro Davlat texnika universiteti  
“Elektr va energetika muhandisligi”  
kafedrası dotsenti, Buxoro shahri,  
O‘zbekiston Respublikasi*

***Mirzayev Sanjar Olimovich***

*Buxoro Davlat texnika universiteti  
“Elektr va energetika muhandisligi”  
kafedrası dotsenti, Buxoro shahri,  
O‘zbekiston Respublikasi.*

*Email: [Sanjar.mirzaev.1981@mail.ru](mailto:Sanjar.mirzaev.1981@mail.ru)*

